

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“IQTISODIYOT” fakulteti

“MAKROIQTISODIYOT” kafedrası

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

Kafedra mudiri i.f.n.,
dots.M.T.Asqarova


«21» 05 2013 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: O'zbekistonda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni
qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish yo'llari**

ILMIY RAHBAR:

i.f.n., dots. M.Qosimov



BAJARDI: “Iqtisodiyot

(makroiqtisodiyot)” ta'lim yo`nalishi

EKM –52 guruh

bitiruvchi kurs talabasi

Usmonov Azizbek Alibek o'g'li



Bitiruv malakaviy ishi dastlabki himoyadan o'tganligi 2013 yil
2 maydagi 7 sonli bayonnoma bilan rasmiylashtirilgan.

Toshkent-2013

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiyot" fakulteti EKM-52
guruh bitiruvchisi talabasi Usmonov Azizbek Albek o'g'lining
"O'zbekistonda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab – quvvatlash
mexanizmini takomillashtirish yo'llari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantiruvchi va aholini turmush darajasini yuksaltirishda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash zarur. Bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilar loyihalarini talab darajasida ishlab chiqarish, mahalliyashtirish davlat dasturiga tanlab olish va rag'batlantirishni taqazo etadi. Ushbu sababdan A.Usmonovning bitiruv malakaviy ishi dolzarb mavzuga bag'ishlangan.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan tarkib topgan,

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, predmet va amaliy ahamiyati kabi asosiy ma'lumotlar berilgan.

BMIning birinchi bobida, O'zbekistonda mahalliyashtirish dasturi va uning asosiy yo'nalishlari, rivojlanish bosqichlari, ko'rsatkichlari qisqacha ifodalangan. O'zbekistonda mavzuga tegishli qonun va normativ hujjatlar umumlashtirilgan.

BMIning ikkinchi bobida mahalliyashtirish dasturi va uning monitoring tizimi, va asosiy ko'rsatkichlari berilgan. Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasining mahalliyashtirish dasturiga ta'siri alohida savolda berilgan va tahlil qilingan. Mahalliyashtirish dasturining samaradorligi uning ko'rsatkichlari analitik jadvallarda ifodalangan.

BMIning uchinchi bobi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmini rivojlantirishga qaratilgan. Buning uchun davlat tomonidan ma'lum chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish talab qilinadi.

Xulosa va takliflar BMIning nazariy, amaliy va huquqiy asoslari bilan bog'liq holda ishlab chiqilgan.

Umuman olganda BMI belgilangan talablarga javob beradi, uning muallifi A.Usmonovga bakalavr ilmiy darajasini himoyadan so'ng berish mumkin.

Ilmiy rahbar


Qosimov M.S.

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiyot” fakulteti 4-bosqich
EKM-52 guruh talabasi Usmonov Azizbek Albek o‘g‘li tomonidan yozilgan
“O‘zbekistonda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab – quvvatlash
mexanizmini takomillashtirish yo‘llari”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 29 iyuldagi «2011—2013 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1590-son Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 18 yanvardagi “2013 yilda Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish pragnoz parametrlari to‘g‘risida” gi №12 sonli Qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida bugungi kunda mamlakatimizda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Qabul qilingan ushbu qonun hujjatlari mahalliyashtirish jarayonining jadal va barqaror rivojlanishini ta‘minlash, korxonalar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, ichki bozorda o‘zimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini, yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini ko‘paytirish hamda aholi bandligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Talaba Usmonov A.A. tomonidan yozilgan mazkur tadqiqot ishi aynan yuqoridagi masalalarga bag‘ishlanganligi bois dolzarbdir. Muallif bitiruv malakaviy amaliyoti davrida bitiruv malakaviy ishiga zarur bo‘ladigan barcha ma‘lumotlarni to‘plab, tahlillar orqali amaliy xulosalar qilishga muvaffaq bo‘lgan. Bitiruv malakaviy ishi yuqori saviyada bajarilgan bo‘lib, bitiruv malakaviy ishining maqsadini amalga oshirish uchun qo‘yilgan vazifalar hal etilgan. Tadqiqotni amalga oshirish mobaynida talaba respublikamizda olib borilayotgan mahalliyashtirish dasturining bugungi kundagi holatini o‘rganish, tegishli ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali mavjud yutuq va muammolarni, buning

sabablarini ochib berishga muvaffaq bo'lgan.

Talaba olib borgan ilmiy izlanishlaridan xulosa qilgan holda ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada rivojlantirishdagi mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish, uni istiqboldagi rivojlantirish yo'nalishlari yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga erishilgan.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mazkur mavzuning ahamiyati, dolzarbligi yoritilgan va mavzuni o'rganish maqsadi va unga erishishdagi asosiy vazifalar belgilangan. Mavzu ob'ekti va uning tarkibiy mazmuni ko'rsatilgan.

Ishning asosiy qismi birinchi bobida mavzu nazariy jihatdan ilmiy-uslubiy asoslangan holda yoritib berilgan. Keyingi boblarda bitiruv malakaviy amaliyoti davomida to'plangan materiallar va ma'lumotlar milliy dasturlar va hukumat qarorlariga asoslangan holda tahlil etilgan, mahalliyashtirish jarayonidagi tegishli ma'lumotlar turli diagramma, gistogramma va grafiklar orqali ko'rsatib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining so'ngida olib borilgan tadqiqot natijalari va qilingan tahlillar asosida yakuniy xulosalar qilingan, xulosaga muvofiq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Usmonov Azizbek Albek o'g'lining bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya etamiz.

O'zbekiston Respublikasi
iqtisodiyot vazirligi
“Mahalliyashtirish dasturlarini
shakillantirish va monitoring
bo'limi” boshlig'i



Rahmatov F.Q.

Handwritten notes and signatures at the bottom of the page, including a large signature and some illegible text.

Fakultet: Iqtisodiyot
Kafedra: Makroiqtisodiyot
O'quv yili: 2012/2013

Talaba: Usmanov A.A.
Ilmiy rahbar: Qosimov M.S.

**“O'zbekistonda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash
mexanizmini takomillashtirish yo'llari”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga
Annatatsiya**

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatda mahalliyashtirish dasturini tashkil etish va uning samarali bajarilishini ta'minlash birinchi navbatda davlat oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Respublika iqtisodiyotini yuksaltirish va bu borada mamlakatda mahalliyashtirish dasturini keng joriy etish iqtisodiyotda investitsiya faoliyatini samarali boshqarish, ishlab chiqarishni yangilash va modernizatsiyalashni taqozo etadi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida davlatning eng muhim vazifalaridan biri – iqtisodiyotni barqarorlashtirish va modernizatsiyalash siyosatini samarali bajarish hisoblanib, bu hol mamlakatda mahalliyashtirish dasturini rivojlantirishni hamda uning ahamiyatini kuchaytirib borishni talab etadi. Bu esa O'zbekiston iqtisodiyotining yanada jadal va barqaror rivojlanishiga, uning tashqi omillarga bog'liqligining kamayishiga, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni joriy etishning jadallashuviga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarishni to'g'ri yo'lga qo'yilishi, sanoat ishlab chiqarishining barqaror suratlarda o'sishini ta'minlab kelmoqda. Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida ta'kidlab o'tganlaridek kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish hozirgi sharoitda korxonalar va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyati barqarorligining kuchli omili, mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish va eng asosiysi – yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligi va daromadlarini ko'paytirishning eng muhim yo'nalishi hisoblanadi. 2012 yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga o'sdi, 2000 yilda mamlakat yalpi ichki

mahsulotini shakllantirishda sanoat ishlab chiqarishining ulushi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 24 foizga yetdi.¹

Ishning o'rganilganlik darajasi. Mahalliyashtirish dasturi investitsion dasturdan keying jarayon ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, bu borada mamlakatimiz iqtisodchi olimlari asarlarida o'z qarashlarini bildirib o'tganlar. Fayzullaev Yo., Isoqov M.Yu., G'ozibekov D., Yuldashev Sh.G., Ismoilov K.K., Uzoqov A., Karimov N.G. tadqiqotlarida ham ushbu muammolarga katta e'tibor berganlar. Investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va ularni samarali amalga oshirish jarayonlarini faollashtirish muammosining turli jihatlari Hikmatov O.X., Sharifxo'jaev M.Sh., Muhiddinov R.M., Maxmudov E.X., Abdug'aniev A.A., Nodirxonov U.S., G'ulomov S.S., G'ozibekov D., Rasulov N.N., Turdiev A., Yusupova N.M., va boshqa bir qancha olimlarning ishlarida ham atroflicha yoritilgan.

Ilmiy tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasining Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi, mamlakatimizda va chet elda chiqqan metodik hamda ma'lumotnoma materiallar bitiruv malakaviy ishi uchun axborot bazasi bo'lib xizmat qildi.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalar bitiruv malakaviy ishi tadqiqotining maqsadi va vazifalarini asoslab berdi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi mamlakatda mahalliyashtirish dasturini samarali amalga oshirish va dasturni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar hamda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqqan holda ishning vazifalaridan shifarda quyidagilar belgilab olindi:

¹ I.Karimov "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" nomli 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining ta'lim va ma'ruzasi/Xalq so'zi/19.01.2013 y. №13(5687).

- Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish sharoitida O'zbekistonda mahalliyashtirish dasturi rolini oshirish masalalarini o'rganish;
- Respublikada ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari va ularni hisoblash uslublarini to'g'ri shakllantirish;
- Mahalliyashtirish dasturining monitoring tizimi mexanizmini takomillashtirish bo'yich takliflar ishlab chiqish;
- Mahalliyashtirish loyihalarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholash mezonini tartibga solishda davlat ishtirokining shakllarini aniqlash va uning vazifalarini asoslash;
- Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan mahalliyashtirish dasturi loyihalarining umumiy ekspertizasi va monitoringini takomillashtirish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov hamda Vazirlar Mahkamasining Qaror va Farmonlari, amalda qo'llanilayotgan O'zbekiston Respublikasi Qonunlari tashkil qiladi. Shuningdek, ilmiy izlanish uchun nazariy-ilmiy asos qilib respublikamiz va xorijiy mamlakatlar yirik iqtisodchi olimlarning mahalliyashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash sohasidagi yaratilgan ilmiy ishlari olindi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, statistik ma'lumotlarini solishtirma tahlil, tanlab kuzatish, ekspert-baholash, matematik modellashtirish va prognozlash kabi usullar qo'llanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi sifatida quyidagilar taqdim qilinadi:

- Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida davlat barqaror iqtisodiy o'sishning alohida ahamiyatga ega ekanligi, ya'ni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etishda mamlakat iqtisodiyotida olib borilayotgan ishlab chiqarishni mahalliyashtirish chora-tadbirlarining alohida ahamiyat kasb etishi yoritilgan;
- Mamlakatimizda mahalliyashtirish jarayonining ahamiyati va uning natijaviyligini oshirish yo'nalishlari ochib berilgan;

- Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan mahalliyashtirish dasturi loyihalarining umumiy ekspertizasi va monitoringini takomillashtirish masalalari alohida tahlil qilingan.

Tadqiqot ob'ekti O'zbekiston Respublikasining barcha mintaqalari – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri iqtisodiyot bo'limlarida, hamda barcha sanoat tarmoqlarida amalga oshirilayotgan mahalliyashtirish dasturi va uni amalga oshirish holati.

Tadqiqot predmeti mamlakatda mahalliyashtirish dasturlarini bajarilish jarayoni va uni takomillashtirish yo'llarini tadqiq etish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalaridan Respublikamizda olib borilayotgan tarmoqlar va hududlar misolidagi mahalliyashtirish dasturini bajarilish borasida va uni yanada takomillashtirish usullaridan oqilona foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ilovalarni hisobga olmaganda umumiy hajmi 80 bet bo'lib, 7- ta jadval, 2- ta chizma, 8 - ta diagramma o'zida mujassamlashtirgan.

Ilmiy rahbar:



i.f.n.dots.Qosimov M.S.

Talaba:



Usmanov A.A.

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИГА ТОПШИРИК

Талабага Алимов Ахмедбек Ахмедович
(Фамилияси, исми, отасининг исми)

Йўналиши: "Иқтисодиёт (макроиқтисодиёт)"

1. Битирув малакавий иши мавзуси Ўзбекистонда маҳаллий ишлов
шарҳловлари қўлдан келтирилган маҳаллий
ишлов тарқатиш ва тартибга солиш

2. Малакавий амалиёт жойи Ўзбекистон Республикаси Иқтисодот вазирлиги

3. Иш раҳбари И.Ф.Н. доцент Алимов И.С.
(Фамилияси, исми, отасининг исми, илмий даражаси ва унвони)

4. Иш бўйича маслаҳатчи Қўлов Қўловна Шайхиддинова З.А.
(Фамилияси, исми, отасининг исми, илмий даражаси ва унвони)

5. Ишнинг мақсади Маҳаллий ишловнинг ҳаётдаги аҳамияти
амалиёт тарқатиш ва тартибга солиш тарқатиш
қўлдан келтирилган тарқатиш ва тартибга солиш

6. Иш мундарижаси (режаси) Бажариш муддати:

I - боб. Ўзбекистонда маҳаллий
ишлов шартлари қўлдан келтирилган
шартлари қўлдан келтирилган « 2 » с 20 13 йил

II - боб. Ўзбекистон Республикаси
ишлов тарқатиш ва тартибга солиш
шартлари қўлдан келтирилган « 3 » с 20 13 йил

III - боб. Маҳаллий ишлов шартлари
шартлари қўлдан келтирилган
шартлари қўлдан келтирилган « 4 » с 20 13 йил

Хулоса ва таклифлар.

7. Ишни бажариш учун зарур бўлган материаллар:

а) Адабиёт манбалари: Ўзбекистон Республикаси Президентининг
Қарарлари

б) Ҳуқуқий актлар Ўзбекистон Республикаси Қонунлари
Президент Қарарлари

в) Статистик ва бошқа ҳақиқий маълумотлар: Ўзбекистон Республикаси
Иқтисодот вазирлигининг

8. Тасвирий материаллар: Қўлов Қўловна Шайхиддинова
И.С.

9. Ишни топшириш муддати « 5 » с 20 13 йил.

Илмий раҳбар Алимов И.С.
(имзо)

Маслаҳатчи Қўлов Қўловна
(имзо)

Топшириқни бажариш учун олдим Алимов И.С.
(талаба имзоси)

Топшириқ берилган кун « 5 » с 20 13 йил

MUNDARIJA

KIRISH.....3

I BOB. O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ISHLAB CHIQRUVCHILARNI QO'LLAB - QUVVATLASH MEXANIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....7

1.1. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish tushunchasi, mohiyati va rivojlanish bosqichlari.....7

1.2. O'zbekiston Respublikasi mahalliyashtirish dasturi va uning asosiy yo'nalishlari 12

1.3. Mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari va ularni hisoblash uslubi.....23

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MAHALLIYLASHTIRISH DASTURI VA UNING NATIJALARI TAHLILI.....28

2.1. Mahalliyashtirish dasturining monitoring tizimi va asosiy ko'rsatkichlari tahlili28

2.2. Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasining mahalliyashtirish dasturiga ta'sirining tahlili39

2.3 Mahalliyashtirish dasturining samaradorlik tahlili.....51

III BOB. MAHALLIY ISHLAB CHIQRUVCHILARNI QO'LLAB - QUVVATLASH MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....58

3.1. Mamlakatda mahalliyashtirish dasturini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari58

3.2. Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan mahalliyashtirish dasturi loyihalarining umumiy ekspertizasi va monitoringini takomillashtirish67

XULOSA VA TAKLIFLAR.....73

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....77

ILOVALAR

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatda mahalliyashtirish dasturini tashkil etish va uning samarali bajarilishini ta'minlash birinchi navbatda davlat oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Respublika iqtisodiyotini yuksaltirish va bu borada mamlakatda mahalliyashtirish dasturini keng joriy etish iqtisodiyotda investitsiya faoliyatini samarali boshqarish, ishlab chiqarishni yangilash va modernizatsiyalashni taqozo etadi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida davlatning eng muhim vazifalaridan biri – iqtisodiyotni barqarorlashtirish va modernizatsiyalash siyosatini samarali bajarish hisoblanib, bu hol mamlakatda mahalliyashtirish dasturini rivojlantirishni hamda uning ahamiyatini kuchaytirib borishni talab etadi. Bu esa O'zbekiston iqtisodiyotining yanada jadal va barqaror rivojlanishiga, uning tashqi omillarga bog'liqligining kamayishiga, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni joriy etishning jadallashuviga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarishni to'g'ri yo'lga qo'yilishi, sanoat ishlab chiqarishining barqaror suratlarda o'sishini ta'minlab kelmoqda. Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida ta'kidlab o'tganlaridek kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish hozirgi sharoitda korxonalar va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyati barqarorligining kuchli omili, mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish va eng asosiysi – yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligi va daromadlarini ko'paytirishning eng muhim yo'nalishi hisoblanadi. 2012 yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga o'sdi, 2000 yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoat ishlab chiqarishining ulushi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 24 foizga yetdi.¹

¹ I.Karimov "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamlı islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" nomli 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi/Xalq so'zi/19.01.2013 y. №13(5687).

Ishning o'rganilganlik darajasi. Mahalliyashtirish dasturi investitsion dasturdan keying jarayon ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, bu borada mamlakatimiz iqtisodchi olimlari asarlarida o'z qarashlarini bildirib o'tganlar. Fayzullaev Yo., Isoqov M.Yu., G'ozibekov D., Yuldashev Sh.G., Ismoilov K.K., Uzoqov A., Karimov N.G. tadqiqotlarida ham ushbu muammolarga katta e'tibor berganlar. Investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va ularni samarali amalga oshirish jarayonlarini faollashtirish muammosining turli jihatlari Hikmatov O.X., Sharifxo'jaev M.Sh., Muhiddinov R.M., Maxmudov E.X., Abdug'aniev A.A., Nodirxonov U.S., G'ulomov S.S., G'ozibekov D., Rasulov N.N., Turdiev A., Yusupova N.M., va boshqa bir qancha olimlarning ishlarida ham atroflicha yoritilgan.

Ilmiy tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasining Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi, mamlakatimizda va chet elda chiqqan metodik hamda ma'lumotnoma materiallar bitiruv malakaviy ishi uchun axborot bazasi bo'lib xizmat qildi.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalar bitiruv malakaviy ishi tadqiqotining maqsadi va vazifalarini asoslab berdi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi mamlakatda mahalliyashtirish dasturini samarali amalga oshirish va dasturni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar hamda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqqan holda ishning vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

- Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish sharoitida O'zbekistonda mahalliyashtirish dasturi rolini oshirish masalalarini o'rganish;
- Respublikada ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari va ularni hisoblash uslublarini to'g'ri shakllantirish;
- Mahalliyashtirish dasturining monitoring tizimi mexanizmini takomillashtirish bo'yich takliflar ishlab chiqish;

- Mahalliyashtirish loyihalarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholash mezonini tartibga solishda davlat ishtirokining shakllarini aniqlash va uning vazifalarini asoslash;
- Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan mahalliyashtirish dasturi loyihalarining umumiy ekspertizasi va monitoringini takomillashtirish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov hamda Vazirlar Mahkamasining Qaror va Farmonlari, amalda qo'llanilayotgan O'zbekiston Respublikasi Qonunlari tashkil qiladi. Shuningdek, ilmiy izlanish uchun nazariy-ilmiy asos qilib respublikamiz va xorijiy mamlakatlar yirik iqtisodchi olimlarning mahalliyashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash sohasidagi yaratilgan ilmiy ishlari olindi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, statistik ma'lumotlarini solishtirma tahlil, tanlab kuzatish, ekspert-baholash, matematik modellashtirish va prognozlash kabi usullar qo'llanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi sifatida quyidagilar taqdim qilinadi:

- Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz shartida davlat barqaror iqtisodiy o'sishning alohida ahamiyatga ega ekanligi, ya'ni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etishda mamlakat iqtisodiyotida olib borilayotgan ishlab chiqarishni mahalliyashtirish chora-tadbirlarining alohida ahamiyat kasb etishi yoritilgan;
- Mamlakatimizda mahalliyashtirish jarayonining ahamiyati va uning natijaviyligini oshirish yo'nalishlari ochib berilgan;
- Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan mahalliyashtirish dasturi loyihalarining umumiy ekspertizasi va monitoringini takomillashtirish masalalari alohida tahlil qilingan.

Tadqiqot ob'ekti O'zbekiston Respublikasining barcha mintaqalari – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri iqtisodiyot

bo'limlarida, hamda barcha sanoat tarmoqlarida amalga oshirilayotgan mahalliyashtirish dasturi va uni amalga oshirish holati.

Tadqiqot predmeti mamlakatda mahalliyashtirish dasturlarini bajarilish jarayoni va uni takomillashtirish yo'llarini tadqiq etish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalaridan Respublikamizda olib borilayotgan tarmoqlar va hududlar misolidagi mahalliyashtirish dasturini bajarilish borasida va uni yanada takomillashtirish usullaridan oqilona foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ilovalarni hisobga olmaganda umumiy hajmi 80 bet bo'lib, 7- ta jadval, 2- ta chizma, 8 - ta diagramma o'zida mujassamlashtirgan.

I BOB. O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ISHLAB CHIQUVCHILARNI QO'LLAB - QUVVATLASH MEXANIZMINING NAZARIY ASOSLARI.

1.1 Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish tushunchasi, mohiyati va rivojlanish bosqichlari

Mamlakat iqtisodiyotining real sektorini qo'llab-quvvatlash borasidagi muhim yo'nalishlardan biri – bu sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonidir.

Ishlab chiqarishni ushbu shakli respublikamiz iqtisodiy o'sishiga ta'sir ko'rsatadi va aynan shu ta'sir natijalarining tahlilini hisobga olgan holda iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari belgilash ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning mazmun va mohiyati haqida aniq tasavvurga asoslanishi kerak. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni diversifikatsiya qilishning ajralmas muhim tarkibiy qismi ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'lib, unga ta'rif berishda turlicha yondoshuvlar mavjud.

Iqtisodiy lug'atda "Mahalliyashtirish (ingliz tilida "Localization" lotin tilining "locus" so'zidan olingan bo'lib, "joy, makon" ma'nolarini ifodalaydi) – (i) muayyan bir joy (makon)ga tegishli bo'lmoq, (ii) tarqalib ketishini cheklash, (iii) me'yor va chegaralarini qurish" deb ta'riflangan.

Vazyanskiy A.M ishlab chiqarishni mahalliyashtirish haqida quyidagi fikrni bildiradi: "Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish - asli xorijda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni boshqa mamlakatlar hududida ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish jarayoni".²

Shu bilan birga, ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning o'zi, u bilan bog'liq bo'lgan muammolar va imkoniyatlar bugungi kunda respublikamizda yetarli darajada o'rganilmaganligi uchun aniq bir ta'rif berilmagan. Shuning uchun, ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning muhim jihatlarini tahlil qilishdan, oldin unga ta'rif berish maqsadga muvofiq.

² Кузнецов В.П., Вазьянский А.М. Локализация производства как инструмент повышения экономической эффективности организации/ Вестник Череповецкого Государственного Университета Научный Журнал/ Основан в декабре 2002 г. /№ 3 (41). Т. 2 • 2012№3 стр.-60

Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish o'zining mazmun va mohiyati bo'yicha ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirishning rag'batlantirish yo'llaridan biri hisoblanib, mamlakatimizdagi xom ashyo va resurslarga boy mavjud manbalardan oqilona foydalanish asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, yuksak texnologik, eksportga yo'naltirilgan hamda import o'rnini bosuvchi, ichki bozor talablarini to'yintirishga qaratilgan tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallarni respublika hududida ishlab chiqarish jarayonidir.

Jarayon atamasi odatda ishlarni amalga oshirishning tizimli yo'li sifatida qo'llaniladi. Biz ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni bir jarayon sifatida ta'rifladik.

E'tibor berilishi lozim bo'lgan bir boshqa tomoni shuki, ushbu ta'rif moliyalashtirish, asbob uchkuna bilan jihozlash, axborotlar bilan ta'minlash, ish o'rinlari yaratish kabilarni aks ettirmoqda.

Ma'lumki, mahalliyashtirish jarayoni iqtisodiyotning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash, uning tashqi omillarga bog'liqligini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni tatbiq qilishni jadallashtirish, mahalliy xom ashyo va ishlab chiqarish resurslaridan keng foydalanish, shuning asosida zamonaviy raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, valyuta mablag'laridan tejimli va oqilona foydalanish, shuningdek yangi ish joylarini yaratish imkonini beradi.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab amalga oshirib kelinayotgan ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi mazkur vazifani bajarishda muhim o'rin tutadi. Import hajmi va tarkibini tizimli tahlil qilishni hisobga olgan holda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonini yanada rag'batlantirish, eksportga mo'ljallangan raqobatbardosh mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish, tarmoqlararo va ichki tarmoq sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish hamda mustahkamlash va shu asosda aholi bandligi o'sishini ta'minlash maqsadida, respublikamizda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi qabul qilingan.

Mahalliyashtirish dasturi - sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarish Dasturi bo'lib, unga ishlab chiqarish hajmlarining maqsadli parametrlarini va mahalliyashtirish darajasini hamda respublika korxonalarini tomonidan o'zlashtirilishi tavsiya etilayotgan mahsulotlar turlari ro'yxati kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati qarorlari bilan tasdiqlangan.

Mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi quyidagi ijobiy jihatlar bilan tavsiflanadi:

- mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish;
- sanoat turli tarmoqlarining qo'shilgan qiymati yuqori darajada bo'lgan mahsulotlar eksportini ko'paytirish va tegishli ravishda, an'anaviy eksport salmog'ini kamaytirish;
- samarali ichki va tarmoqlararo ishlab chiqarish kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning real sektorida mamlakatimiz korxonalarining kooperatsiyasi salohiyatidan yuqori darajada foydalanish;
- mahalliy xom ashyoni qayta ishlashni kengaytirish, ishlab turgan korxonalarini zamonaviylashtirish va yangilarini tashkil etish hisobiga iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish va h.k.

Mahalliyashtirish dasturi loyihalari mablag'larining samaradorligini tahlil qilish sifatli va ishonchli bo'lishi uchun har bir aniq vaziyat uchun g'oyat xilma-xil vositalar va metodik yondoshuvlarning tegishli kombinatsiyasidan foydalanish zarur. Bunda har qanday investitsiyaviy qarorni ikki jihatdan baholash maqsadga muvofiq:

- moliyaviy tahlil - aniq (xususiy) investorning oladigan foydasini baholash uchun;
- iqtisodiy tahlil - investitsiyalarning jamiyat uchun samaradorligini aniqlash uchun.

Mahalliyashtirish dasturi loyihalari salohiyati iqtisodiy o'sishning eng muhim omillaridan biri ekanligini hisobga olsak, O'zbekistonning

mahalliyashtirish dasturi loyihalarini amalga oshirish borasida vujudga kelgan asosiy holatini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Respublika Prezidenti Islom Karimov o'z chiqishlarida qayta-qayta ko'rsatib o'tganidek, « ... vujudga kelgan iqtisodiy vaziyatni har tomonlama tahlil qilmasdan, chuqur iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy inqirozga olib kelgan sabablarni, xo'jalik tizimidagi qat'iyon voz kechish lozim bo'lgan illatlarni aniqlamay turib, jamiyatning sifat jihatidan yangi holatiga o'tib bo'lmaydi»³.

O'zbekistonda mahalliyashtirish jarayonini keng targ'ib qilishning muhim xususiyatlaridan biri – uni davlat dasturlari asosida bosqichma-bosqich amalga oshirishdir. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rivojlantirishning birinchi bosqichi – 1992-2000 yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr mobaynida mahalliyashtirish birinchi navbatdagi kompleks tarmoq va investitsiya dasturlari shaklida amalga oshirilgan.

Ikkinchi bosqich 2000-2005 yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Mazkur bosqich jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha dasturiy qarorlarga muvofiq, 2005 yilgacha bo'lgan davrda mahalliy xomashyo negizida buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning dasturi ishlab chiqilgan.

Dasturning asosiy maqsadlari va vazifalari etib, ishlab chiqarishni texnologiya jihatidan yangilash va zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish maqsadidagi mahsulotlar importini qisqartirish, mahalliy xom ashyodan jahon standartlariga javob beruvchi, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish, shuningdek davlatning valyuta sarf-xarajatlarini maqbullashtirish va yangi ish o'rinlari tashkil etish asosida sanoatda tarkibiy qayta o'zgartirishlar hisobiga iqtisodiyotning balanslilikini ta'minlashga ko'maklashish belgilangan.

Mazkur dastur Investitsiya dasturida qamrab olinmagan mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqilgan dastur bo'lib, ishlab chiqarishning mo'ljallanayotgan

³ I.Karimov "O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" Toshkent, "O'zbekiston", 1993y.

hajmi 447,66 mln AQSh dollari bo'lgan 102 nomdagi importning o'rnini bosuvchi mahsulotlarni respublikamizda ishlab chiqarishni nazarda tutgan. Bu dastur respublikaning mineral xom ashyo, energetika resurslarini xo'jalik muomalasiga keng jalb etishga qodir bo'lgan tarmoqlarini qamrab olgan. Volostonit, bazalt tola, faollashtirilgan ko'mir, shisha plastik materiallar, quruq sut kabi yangi tovarlarni ishlab chiqarish ham ikkinchi bosqichda o'zlashtirilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida 2006 yildan boshlab ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning uchinchi bosqichi amal qila boshladi. Bu bosqich davrida (2006-2008 yillar) iqtisodiyotning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash, uning tashqi omillarga bog'liqligini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni tatbiq qilishni jadallashtirish, mahalliy xom ashyo va ishlab chiqarish resurslaridan keng foydalanish, shuning asosida zamonaviy raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, valyuta mablag'laridan tejimli va oqilona foydalanish, shuningdek yangi ish joylarini yaratish maqsadida 2006-2008 yillarda mahalliy xom ashyo negizida tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi tasdiqlangan.

Ishlab chiqarish mahalliyashtirishning to'rtinchi bosqichi 2009-2013 yillarni o'z ichiga olib, bu bosqichda mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirish, nazorat qilish, tartibga solish kabi jarayonlarini yanada takomillashtirishni maqsad qilgan bir qancha dasturlar jumladan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 21 iyuldagi «Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 154 sonli Qarori ishlab chiqildi va ishlab chiqarishga joriy etildi.

1.2 O‘zbekiston Respublikasi mahalliyashtirish dasturi va uning asosiy yo‘nalishlari

Mahalliyashtirish jarayoni iqtisodiyotning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash, uning tashqi omillarga bog'likligini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni tatbiq qilishni jadallashtirish, mahalliy xom ashyo va ishlab chiqarish resurslaridan keng foydalanish, shuning asosida zamonaviy raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, valyuta mablag'laridan tejamli va oqilona foydalanish, shuningdek yangi ish joylarini yaratish imkonini beradi.

Loyihani mahalliyashtirish dasturiga kiritish bo'yicha taklif kiritish uchun, uning ko'rsatkichlari quyidagi talablarga javob berishi asos bo'ladi:

- a) mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun mahalliy xom ashyo resurslari va yetarli ishlab chiqarish quvvati mavjudligi;
- b) ishlab chiqarilayotgan mahsulot bo'yicha mahalliyashtirish darajasi kamida 30% bo'lishi kerak;
- v) dastlabki xom-ashyo bilan qiyoslanganda oxirgi mahsulot TIF TN tovar o'rnining eng kamida birinchi to'rtta raqamning bittasi darajasida o'zgarishini ta'minlash;
- g) mahalliyashtirilgan mahsulotlarga ichki va tashqi bozorlarda talab mavjudligi;
- d) xuddi shunday mahsulotning importi mavjudligi; (yangi ishlab chiqarilgan mahsulotlardan tashqari);
- e) mahsulot iste'molchilari bilan bo'lgan shartnomalar yoki kelishuvlar mavjudligi;
- j) mahalliyashtirilgan mahsulotning narxi, import qilinayotgan o'xshash mahsulotdan yuqori bo'lmasligi (transport xarajatlari, soliq va bojxona to'lovlarini hisobga olgan holda).

Shu bilan bir qatorda mahalliyashtirish dasturiga kirishda, jahon standartlariga mos keladigan mahsulot ishlab chiqargan va yuqorida

keltirilgan talablarga javob bera olgan korxonalar ko'proq imkoniyatga ega bo'ladilar.

Loyihani mahalliyashtirish dasturiga, Maxsus idoralararo komissiya tomonidan istisno tariqasida kiritish yuzasidan qaror qabul qilinishi mumkin bo'lgan holatlar:

- mahalliyashtirish darajasi 30% dan kam bo'lgan, lekin bir yil davomida mahalliyashtirish darajasini 30% dan kam bo'lmagan holatga yetkazish sharti bilan mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha;
- dastlabki xom-ashyo bilan qiyoslanganda oxirgi mahsulot TIF TN tovar o'rnining eng kamida birinchi to'rtta raqamning bittasi darajasida o'zgarishini ta'minlanmaganlik holatida–ishlab chiqarishni iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan bo'lsa.

Korxonalar ishlab chiqarayotgan bir xil turdagi mahsulotlari Mahalliyashtirish dasturiga uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga bir marta kiritiladi.

Quyidagi shartlar bilan ayrim holatlarda istisno tariqasida Maxsus idoralararo komissiya tomonidan korxonaning mahalliyashtirish dasturida bo'lgan muddatini cho'zish yuzasidan qaror qabul qilinishi mumkin:

- mahalliyashtirish darajasini asta-sekin chuqurlashtirish va mineral xom ashyo resurslarini yanada chuqur qayta ishlashni yo'lga qo'yish orqali mahalliyashtirilgan mahsulot tannarxida import ulushini yanada kamaytirish, sanoat kooperatsiyasi orqali, oldin import qilingan butlovchi qism va materiallarni ishlab chiqarishni o'zlashtirish;
- ichki bozorda to'la bo'lmagan mahalliyashtirilgan mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish.

Mahalliyashtirish dasturiga yangi mahalliyashtirish loyihalarini qo'shish, alohida parametrlarning o'zgarishi (ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichlari va mahalliyashtirish darajasi pragnozlari, texnik parametrlari, loyihaning nomlanishi, korxonaning nomlanishi) hamda avval mahalliyashtirish dasturiga

kiritilgan ayrim loyihalarning dasturdan chiqarilishi bo'yicha o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Mahalliyashtirish dasturiga, to'liq raqobat mavjud bo'lgan, mahalliy bozorda taklifi ko'p bo'lgan yoki boshqa o'xshash mahsulot ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lganda, ishlab chiqarish hajmi ichki bozorni to'liq qondira olgan ishlab chiqarish loyihalari kiritilmaydi.

Mahalliyashtirish dasturidan loyihalarni chiqarish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- korxonada faoliyati tugatilishi yoki fors-majior holatlarida;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi, mahsulotning narxi va sifati bo'yicha raqobatbardosh emasligi sababli ichki bozorda talabning yo'qligi;
- Mahalliyashtirish dasturi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining bajarilmasligi (yil yakuni bo'yicha ishlab chiqarish hajmi 50% dan yuqori, mahalliyashtirish darajasi 10% yuqori bo'lishi);
- to'liq raqobat muhitining mavjudligi, ichki bozorda taklif yo'qligi yoki boshqa o'xshash mahsulot ishlab chiqaruvchi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning paydo bo'lishi, ishlab chiqarish hajmi ichki bozorni to'liq ta'minlaganda (imtiyoz olgandan so'ng 12 oydan kam bo'lmagan muddatda);
- Soliq va bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyoz olib ozod qilingandan so'ng vositalardan maqsadsiz fodalanganlik holati ma'lum bo'lganda.

Mahalliyashtirish loyihasini amalga oshiriyotgan korxonada, mahalliyashtirish dasturidan chetlashtirilgan sanadan boshlab, o'ziga soliq va bojxona to'lovlari bo'yicha taqdim qilingan imtiyozlardan ayriladi.

Mahalliyashtirish dasturiga hujjatlarni taqdim etish va ko'rib chiqish tartibi.
Loyiha tashabbuskorlari mahalliyashtirish dasturi bo'yicha ishlab chiqilgan o'zgartirishlarni Maxsus idoralararo komissiya sekretariatiga korxonada rahbari va bosh hisobchisi tomonidan tasdiqlangan so'ng, quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:

a) Mahalliyashtirish dasturiga kiritishga taklif qilinayotgan loyihalarga mahalliyashtirish dasturiga kiritish uchun ariza, qonunchilikka asosan Maxsus idoralararo komissiyasi tomonidan imtiyoz berish bo'yicha qaror qabul qilinishi uchun esa imtiyoz berish uchun ariza taqdim etiladi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

- mahalliyashtirish loyihasining texnologik uskuna, qo'shimcha qismlar va mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonini to'liq ifoda etuvchi pasporti;
- korxonaning davlat soliq qo'mitasidan tasdiqlangan oxirgi ikki yil uchun moliyaviy natijalari hisoboti va buxgalterlik balansi;

b) Mahalliyashtirish dasturiga qo'shilgan loyihalarning alohida parametrlariga o'zgartirish kiritish uchun – mahalliyashtirilgan loyihaning aniqlashtirilgan pasporti (faqat ishlab chiqarish hajmi oshirilgan holatlar bundan mustasno), tahliliy va jadvalda ko'rsatilgan materiallar bilan, alohida parametrlar bo'yicha o'zgartirishlar kiritish kerakligini isbotlovchi tushuntirish xati;

v) Mahalliyashtirish dasturidan chiqarilishi taklif qilinayotgan loyihalar uchun, tahliliy va jadvalda ko'rsatilgan materiallar bilan, dasturdan chiqish kerakligi isbotlanganligini o'z ichiga oluvchi tushuntirish xati.

Loyiha tashabbuskori taqdim etilayotgan ma'lumotlarning ishonchliligi va qonunlarga to'g'ri kelishiga (zid emasligiga) javobgar.

Loyiha tashabbuskoridan qonun va mavjud nizomda ko'rsatilmagan qo'shimcha ma'lumotlar talab etilishga yo'l qo'yilmaydi.

Muassasalararo maxsus komissiya sekretariati loyihalarning maqsadi va moliyalashtirish manbalariga qarab, ikki kun muddat ichida kelib tushgan taklifni ko'rib chiqish uchun vakillik idoralarga yuboradi.

Takliflarni baholash quyidagi mas'ul tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi:

a) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi – loyihaning umumiy iqtisodiy amalga oshirilishini ma'qulligini quyidagi talablarga ko'ra baholaydi:

- loyihaning mahalliyashtirish dasturi maqsad va vazifalariga mos kelishi;

- loyihani amalga oshirilish imkoniyati;
- taklif etilayotgan mahalliyashtirish darajasiga yetish imkoniyati;
- loyihani mahalliyashtirish dasturiga kiritish yoki uning parametrlarga o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiqligi;

b) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi – loyihaning samaradorligi va amalga oshirish imkoniyatini quyidagilarga ko'ra baho beradi:

- o'xshash import mahsulotlar tahlili(10 ta belgidan iborat TIF TN kodi bo'yicha);
- taklif etilayotgan marketing kontseptsiyasi, shuningdek mahalliyashtirilgan mahsulotni kelajakda sotish;
- mahalliyashtirilgan mahsulotlarni tashqi bozorda sotish narxlarining parametrlari (agarda loyiha tashabbuskori tomonidan mahsulot eksport qilish ko'zda tutilsa);
- loyihaning mahalliyashtirish dasturiga kiritish yoki uning parametrlarga o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiqligi;

v) O'zbekiston Respublikasi xususiyashtirish monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat Qo'mitasi (O'zRXMCHRRDQ) – raqobat muhiti, monopoliya darajasi, o'rinbosar tovarlar va narxni shakllanishni hisobga olgan holda bozorni to'yinganlik darajasini o'rgnadi.

g) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (loyiha markazlashgan moliyalashtirish manbalari va davlat kafolati asosidagi kredit mablag'lari hisobidan amalga oshadigan taqdirda) – loyihaning iqtisodiy samaradorligini tahlil qiladi.

Ko'rib chiqilgan loyihalarga har bir tashkilot o'zining xulosasini beradi. Quyidagi 1.2.1–jadval Toshkent sharida joylashgan “Lok bo'yoq servise” OAJ shaklidagi korxonaning “Emal, kraska, lok” ishlab chiqarish loyihalarini mahalliyashtirish dasturiga kiritish bo'yicha Iqtisodiyot vazirligi, TIAISV hamda

Vakolatli tashkilotlarning Maxsus idoralararo komissiya kotibiyatiga “Lok bo’yoq servise” OAJning “Emal, kraska, lok” ishlab chiqarish loyihalari bergan xulosasi

<p>Iqtisodiyot vazirligi</p>	<p>Mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilariga teng raqobat muhitini yaratish maqsadida usbu loyihani ko’rib chiqish uchun Maxsus idoralararo komissiyaga ko’rsatish mumkin.</p>
<p>TIAISV</p>	<p>Mahalliylashtirish dasturiga “Lok bo’yoq servise” OAJ ning “Emal, kraska, lok” ishlab chiqarish loyihalarini kiritish mumkin.</p>
<p>O’zRXMCHRRDQ</p>	<p>“Emal” va “Lok” loyihalari bo’yicha: Olib borilgan tadqiqot tahlilari natijasida hozirda respublikamizda 28 ta lak-kraska ishlab chiqaruvchi korxonalar aniqlandi. 2009 yilda umumiy ishlab chiqarish hajmi 31 ming tonna va 2010 yil bo’yicha 29,4 ming tonnani tashkil qilgan. Ushbu turdagi mahsulot importi 2009 yilda 4,1 ming tonna 2010 yilda 5,3 ming tonna. Eksport hajmi 2009 yilda 0,027 ming tonna, 2010 yilda eksport qilinmagan. Natija: 2009 yilda bozor raqobat muhiti o’rtacha, bozorning to’yinganlik darajasi 88%, 2010 yilda 85% Bozor ushbu mahsulot bilan yetarli darajada to’yinmagan.</p> <p>“Kraska” loyihasi bo’yicha: Olib borilgan tadqiqot tahlilari natijasida hozirda respublikamizda 57 ta kraska ishlab chiqaruvchi korxonalar aniqlandi. 2009 yilda umumiy ishlab chiqarish hajmi 9,6 ming tonna va 2010 yil bo’yicha 13,3 ming tonnani tashkil qilgan. Ushbu turdagi mahsulot importi 2009 yilda 1,1 ming tonna 2010 yilda 0,575 ming tonna. Ikki yil davomida eksport qilinmagan. Natija: 2009 yilda bozor raqobat muhiti o’rtacha, bozorning to’yinganlik darajasi 90%, 2010 yilda 96% Bozor ushbu mahsulot bilan yetarli darajada to’yinmagan.</p>

Manba:O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi “Mahalliylashtirish dasturlarini shakillantirish va monitoring bo’limi” ma’lumotlari.

O'zRXMCHRRDQning Maxsus komissiyaga taqdim etilgan xulosalarini ko'rishimiz mumkin.

Loyiha tashabbuskorlari bilan hamkorlikda mahalliyashtirish loyihalari pasportlarini to'ldirib, Maxsus komissiyaga taqdim etiladi:

- Maxsus komissiya sekretariati loyihaning maqsadi, moliyalashtirish manbalari va mohiyatidan kelib chiqib Iqtisodiyot vazirligi, TIAIS vazirligi, Moliya vazirligi va O'zRXMCHRRDQga yuboradi;
- Vakolatli ekspertiza organlari taqdim etilgan loyiha hujjatlarini ikki hafta muddatda ko'rib chiqib o'z xulosalarini taqdim etadilar;
- Maxsus komissiya sekretariati tushgan takliflarni vakolatli organlarning xulosalari bilan birgalikda umumlashtirib, ularni ko'rib chiqish uchun mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish bo'yicha Maxsus komissiyaga taqdim etadi;
- Maxsus komissiya Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari ishtirokida tushgan takliflarni ko'rib chiqadi hamda Mahalliyashtirish dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida komissiya majlisi qarori qabul qiladi;
- Maxsus komissiyaning majlis qarori asosida Komissiya sekretariati o'rnatilgan tartibda Mahalliyashtirish dasturiga tuzatishlar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini ishlab chiqadi;
- Vazirlar Mahkamasining Mahalliyashtirish dasturiga tuzatishlar kiritish to'g'risidagi qarori O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri tomonidan imzolanadi.

Loyihalarni tanlab olishda ularning samaradorligi, respublika iqtisodiyoti ayrim tarmoqlarini va mintaqalarini rivojlantirish ustuvorliklari, mahsulot sotish ko'rsatkichlari, shu jumladan, eksportga yo'naltirilganlik, butlovchi buyumlar va komponentlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishda qatnashish va shu kabilar asosiy mezonlar hisoblanadi.

Mahalliyashtirish dasturida loyihaning baholash qiymati, tugallanmagan qurilishi va qurilishni tugallash hamda foydalanishga topshirish uchun yillar bo'yicha joriy narxlarda moliyalashtirishga ehtiyoj, moliyalashtirishning tasdiqlangan manbalari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Mamlakatimizda mahalliyashtirish dasturi asosida ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirishning huquqiy asosini mustahkamlash, davlatning mazkur dastur doirasidagi soha va tarmoqlarni tartibga solish bo'yicha amaliy mexanizmlarni yaratishi muhim ahamiyatga ega. Amaliy harakatlarning keng maydoni va tegishli huquqiy kafolatlarni ta'minlamay turib, tadbirkorlik sub'ektlarini hamkorlik jarayonlariga jalb qilish mumkin bo'lmasa, boshqa tomondan, yirik korxonalarni kichik biznes sub'ektlari bilan kooperatsion aloqalarini rag'batlantiruvchi va ma'lum ma'noda bunday aloqalarga undovchi xatti-harakatlarning ham me'yoriy-huquqiy asoslarini ta'minlash muhim hisoblanadi. Keyingi yillarda bu borada bir qator hujjatlar qabul qilindi. Xususan:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 1 dekabrda PQ-1236 sonli «Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi Qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 23 aprelda PQ-1306 sonli «2010 yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi to'g'risida» gi Qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 iyulda «2011-2013 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida» gi PQ-1590 sonli Qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 29 yanvarda PQ-1913- sonli «Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatdoshligini yanada oshirish va tovarlarni respublikaga noqonuniy olib kirishga qarshi kurashni kuchaytirish to'g'risida» gi Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 21 iyuldagi «Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 154 sonli Qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 18 yanvardagi «2013 yilda Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish pragnoz parametrlari to'g'risida» gi №12 sonli Qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 30 apreldagi PQ-1961-sonli «Mahalliy iste'mol tovarlari takliflarini kengaytirish va ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi Qarori.

Ushbu qonun hujjatlari mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirish, tartibga solish hamda ularni nazorat qilishda yagona huquqiy manba hisoblanadi. Dastur doirasida amalga oshiriladigan har bir jarayon Prezidentimiz Qarorlari, Farmonlari yoki Vazirlar Mahkamasining maxsus Qarorlariga asoslanadi.

Tasdiqlangan mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan loyihalari amalga oshirilayotgan korxonalariga soliq va bojxona imtiyozlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 29 iyuldagi «2011—2013 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1590-son qaroriga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 21 iyuldagi «Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 154-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining 2012 yil 18 apreldagi «Tasdiqlangan

mahalliyashtirish dasturi loyihalari amalga oshirilayotgan korxonalar tomonidan soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi № 39, EG-01/14-1414, 6, 2012-16 va 01-02/8-6 – sonli Qarorga muvofiq beriladi.

Ushbu qarorning 1-ilovasida "Tasdiqlangan mahalliyashtirish Dasturi loyihalari amalga oshirilayotgan korxonalar tomonidan soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risida" gi Nizom berilgan. Mazkur Nizom quyidagi korxonalarga tatbiq etiladi:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 29 iyuldagi PQ-1590-son qarorining 1 va 2-ilovalariga kiritilgan loyiha korxonalarini — 2014 yil 1 yanvargacha quyidagilarni to'lashdan ozod etiladi:

- mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha foyda solig'idan, yagona soliq to'lovidan (soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llaydigan sub'ektlar uchun);

- mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha mol-mulk solig'idan;

- chetdan olib kelinadigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan texnologik asbob-uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, shuningdek mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish texnologik jarayonida foydalaniladigan komponentlar (keyingi o'rinlarda import tovarlari deb yuritiladi) uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvini yig'imlaridan tashqari).

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bo'yicha Mahalliyashtirish Dasturiga kiritilgan loyiha korxonalariga quyidagi tartibda beriladi :

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan sanasidan boshlab chetdan olib kelinadigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan texnologik asbob-uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, shuningdek mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish texnologik jarayonida foydalaniladigan komponentlar (keyingi o'rinlarda import tovarlari deb yuritiladi) uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvini yig'imlaridan tashqari) ;

– agar qarorning o‘zida kechroq muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan oydan keyingi oyning 1 sanasidan boshlab mahalliyashtirish loyihalari bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo‘yicha foyda solig‘idan, yagona soliq to‘lovidan (soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo‘llaydigan sub’ektlar uchun) hamda mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo‘yicha mol-mulk solig‘idan ozod etish bo‘yicha imtiyozlar tatbiq etiladi.

Mazkur Nizomda nazarda tutilgan soliq va bojxona imtiyozlari berilishi, korxonalarda bo‘shab qoladigan mablag‘larni yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga, faoliyat ko‘rsatayotgan ishlab chiqarishlarni kengaytirishga, rekonstruksiya qilishga, modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga, korxonalarining muhandis-texnik xodimlarini rag‘batlantirishga, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirishga (ITTKI), shuningdek ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini pasaytirishga yo‘naltirish imkoniyatini beradi.

Korxonalarda soliqlar bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llash jarayonida quyidagi tartibga amal qilishlari kerak:

a) Mahalliyashtirish loyihalari bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan daromadni foyda solig‘idan ozod qilish ko‘rinishidagi imtiyozni qo‘llash uchun korxonalar mahalliyashtirish loyihalari bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar (xarajatlar) bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishlari lozim ;

b) Yagona soliq to‘lovi to‘lovchisi hisoblangan mikrofirmalar va kichik korxonalarga soliq solish xususiyatlarini hisobga olib, yagona soliq to‘lovi bo‘yicha nazarda tutilgan imtiyoz mahalliyashtirish loyihalari bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushum summasiga qo‘llanadi. Aytib o‘tilgan imtiyozni qo‘llash uchun korxonalar mahalliyashtirish loyihalari bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushum bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishlari kerak.

d) Mahalliyashtirilayotgan mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan asosiy ishlab chiqarish fondlarini mol-mulk solig'idan ozod qilish ko'rinishidagi imtiyozni qo'llash uchun korxonalar mahalliyashtirilayotgan mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha soliq solish bazasining alohida-alohida hisobini yuritishlari kerak. Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz mahalliyashtirilayotgan mahsulotni ishlab chiqarish uchun chetdan olib kelingan, biroq normativ muddatlarda o'rnatilmagan asosiy fondlar uchun qo'llanilmaydi .

Mavjud soliq va bojxona imkoniyatlari evaziga korxonalar hisobida qolgan mablag'lar yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, xomashyo va materiallar xarid qilishga, kiritilgan investitsiyalarni qoplash, jumladan, kreditlarni qoplashga yo'naltirilishi mumkin. Olib borgan ilmiy izlanishlarimiz davomida bir nechtakorxonalar faoliyatida olingan imtiyozlarni samarali ishlab chiqarish jarayoniga sarflaganining guvohi bo'ldik. Jumladan, 2012 yilda Soliq imtiyozlari evaziga birgina Toshkent shari Uchtepa tuman hududida ro'yxatdan o'tib faoliyat yuritib kelayotgan, mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan 9 ta ishlab chiqarish korxonalarini ixtiyorida 2012 yilda 3072,12 million so'm mablag' qolgan. Xususan, bu ko'rsatkich MChJ "GREEN LINE PROFIL" qo'shma korxonasida 1971,63 million so'mni, MChJ "TRUBOKOM-PLEKT"da 400,7 million so'mni, MChJ "ELITE METAL PROFILE"da 342,4 million so'mni tashkil etgan⁴.

1.3. Mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari va ularni hisoblash uslubi

Mahalliyashtirish dasturi loyihalari samaradorligini baholashning xususiyati shuki, maqsad - qiymat, texnologiya, raqobatning tez-tez o'zgarishi tufayli istiqboldagi natijalarga tadbiqan noaniq va beqaror bo'ladi. Inflyatsiya, talabning, foiz stavkasining, valyuta kursining o'zgarishi ham noaniqlik manbai bo'ladi. Iqtisodiy vaziyatdagi katta o'zgarishlar uzoq muddatli loyihalashning xatari yuqori

⁴ <http://www.adolatgzt.uz/economy/1218/20.01.2013.y>.

bo'lishiga olib keladi, shu sababli bozor iqtisodiyotida mablag' solishning samaradorligini baholash chog'ida aniq, biroq qisqa muddatli imkoniyatlarga katta ahamiyat beriladi.

Dastur loyihalarini tahlil qilish uchun sharoitlar mavjud bo'lganda, loyihani tayyorlash moliyaviy va iqtisodiy tahlillar talablariga muvofiq holda o'tkazilishi kerak.

Moliyaviy tahlil buyicha mutaxassis texnik-iqtisodiy asoslashni ishlab chiqishning boshlang'ich bosqichlarida ushbu jarayonga qo'yilgan bo'lsagina, tegishli mutaxassis orqali moliyaviy tahlil loyiha ishlab chiqipishining boshidan boshlab kuzatib borishi mumkin bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalar samaradorligini baholash uchun qo'llanadigan usullar quyidagi xususiyatlardan iborat:

- a) vaqt omili hisobga olinadi va investitsiya loyihasining qiymati hamda kutilayotgan foydalar albatta diskontlanadi;
- b) o'zgaruvchan foiz stavkasi katta rol o'ynaydi;

Bu holat O'zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlariga o'tish mahalliyashtirish dasturi loyihalari samaradorligini baholashga metodik yondoshuvlarni qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Xalqaro moliya-kredit tashkilotlarining tashqi kreditlarni jalb etib amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini muntazam ravishda moliyaviy hamda iqtisodiy baholash ehtiyojlari ham tahlil qilish metodologiyasiga qiziqish kuchayishiga sabab bo'ldi.

Bularning barchasi bozor tahlilining jihatlariga, shuningdek texnik-iqtisodiy asoslashdagi savollarga, ya'ni xom ashyo bazasini baholash, qurilish maydonini tanlash, loyihalashtirish va texnologiyalarni tanlash, investitsiya loyihalarini investorlarning o'z mablag'lari evaziga, shuningdek tashqi moliyalash manbalari evaziga moliyalashtirishni ta'minlash, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash jarayonlariga tegishlidir.

Mahalliyashtirish dasturlari loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy baholashda diskont va nodiskont usullarga tayaniladi. Diskont usulda sof joriy qiymat (NPV),

investitsiya loyihasining rentabelligi (PI) va ichki foyda me'yori (IRR) kabi ko'rsatkichlar aniqlaniladi.

Sof joriy qiymat — investitsiyalash ob'ektidan foydalanish davrida oldindan qat'iy belgilangan va uzgarmas foiz stavkasi (me'yori)da olinadigan daromadlar va qilinadigan xarajatlarning muayyan davrdagi barcha kirim va chiqimlarining diskontlashtirilishi yo'li bilan olingan va ular o'rtasidagi farqni ifodalovchi qiymat. Uning mohiyati shundaki, yillik sof pul oqimi miqdori har bir davr uchun loyihani amalga oshirishning boshlang'ich yiliga keltiriladi va u oqibatda o'zini pul miqdorida sof joriy qiymat yoki sof diskontlashtirilgan daromad (diskontlashtirilgan daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq) sifatida namoyon etadi. Shuning uchun ham sof joriy qiymat muayyan vaqt oralig'i bo'yicha xarajatlar va daromadlarning farqlanishi bilan izohlanadi. Shundan kelib chiqib, investitsiyalarning muqobil variantlarini to'g'ri baholash uchun pulning o'z vaqtidagi qiymati hisobga olinishi qat'iy talab etiladi. Sof joriy qiymat (NPV) quyidagi formula orqali anqlaniladi:

$$NPV = \sum_{t=1}^n \frac{CF_n}{(1+r)^n} - I_0$$

Bu yerda:

NPV (Net Present Value) – sof joriy qiymat;

CF_n (Cash Flows) – pul tushumlari;

R (discount rate) – diskont stavka;

I_0 – boshlang'ich investitsiya.

Investitsiya rentabelligi (Profitability Index) esa quyidagi formula orqali topiladi:


$$PI = \sum_{t=1}^n \frac{CF_n}{(1+r)^n} \cdot \frac{1}{I_0}$$

Ichki foyda me'yori (Internal Rate of Return) esa sof joriy qiymat nolga teng bo'lganda, ya'ni tushumlar hamda chiqimlar o'zaro teng bo'lgan holatidagi diskont

stavkani anglatadi. Ushbu foizni aniqlashdan asosiy maqsad loyiha qanday foiz stavkasigacha ijobiy natija bilan chiqishini bilish hisoblanadi va u quyidagi chizmada o‘z ifodasini topgan.

1.3.1-chizma

Ichki foyda me‘yori grafigi⁵



Diskont stavka dR kattargan sari sof joriy qiymat salbiy tomonga yo‘nalib, bu ko‘rsatkich tobora pasaysa, sof joriy ijobiy natija bera boshlaydi.

Investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy baholashda asoslaniladigan nodiskont usullar safiga loyihaning qoplanish muddati) hamda loyihaning buxgalterik rentabelligi tushunchalarini kiritamiz.

Investitsiyalarning qoplanish davri RR (ingl. Payback Period), bu shunday davrki, bunda dastlabki qilingan investitsiyalar miqdori tiklanadi va u quyidagi formula orqali topiladi.

$$PP = \sum_{t=1}^n \frac{I_o}{CF_n}$$

Ushbu formula yillik pul tushumlari o‘zaro teng bo‘lgandagina amalda qo‘llanilishi mumkin.

Loyihalarni mahalliyashtirish dasturiga qabul qilishning muhim shartlaridan biri loyihaning mahalliyashtirish darajasini ko‘rsatishdir. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

⁵ Е.Г. Непомнящий «Экономическая оценка инвестиций» Учебное пособие. Таганрог 2005.

2010 yil 21 iyuldagi «Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 154 sonli Qaroriga asosan quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$U_1 = 1 - \frac{I}{C} \times 100\% \quad \text{shu bilan birga } 0 \leq I < C$$

Bunda: U_1 – mahsulotni mahalliyashtirish darajasi;

I – import qilinayotgan xom ashyo, materiallar va butlovchi buyumlarning so'mlarda ifodalangan valyuta qiymati;

C – mahsulot birligining ishlab chiqarish tannarxi.

Ushbu formuladan foydalanish jarayonida quyidagi shartlarga etibor berish kerak:

- mahalliy yetkazib beruvchilardan sotib olingan import xom ashyo mahalliy xom ashyo bo'lmasligi lozim;
- mahalliyashtirish darajasi bosqichma-bosqich amalga oshirilgan taqdirda mahalliyashtirish darajasi oshishini asoslovchi butlovchi buyumlar, xom ashyo va materiallarning aniq nomlari loyiha pasportida aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Korxonalarda mahalliyashtirish darajasini hisoblash tartibini quyidagicha hisoblab chiqarish mumkin. Masalan, Samarqand viloyatidagi “Sam Antip Gilam” QK bitta 3*4 hajmdagi gilam tayyorlash uchun 20000 so'mlik materialni Turkiya Respublikasidan import qilyapdi ($I=20000$). Ushbu gilam tayyor holga kelganda uning tannarxi 150000 mingni tashkil qildi ($C=150000$). Mazkur mahsulotning mahalliyashtirish darajasini quyidagicha hisoblashimiz mumkin:

$$U_1 = 1 - 20000/150000 * 100\% = 86\%$$

Demak, “Sam Antip Gilam” QK bitta 3*4 hajmdagi gilam mahsulotining mahalliyashtirish darajasi 86% ga teng.

II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MAHALLIYLASHTIRISH DASTURI VA UNING NATIJALARI TAHLILI.

2.1. Mahalliyashtirish dasturining monitoring tizimi va asosiy ko‘rsatkichlari tahlili

Mamlakatimizda Prezidentimiz rahnamoligida iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan «O‘zbek modeli» va 2009—2012 yillarga mo‘ljallangan inqirozga qarshi choralar dasturi doirasidagi chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi o‘tgan 2012 yilni ulkan yutuqlar bilan yakunlashga imkon berdi. Ya‘ni, avvalgi yillardagidek, o‘tgan yilda ham iqtisodiyotning barqaror o‘sinh sur‘atlari ta‘minlandi. 2012 yakunlariga ko‘ra, respublikamizda YaIM ning o‘sinh sura‘tlari 8,2 foizni, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga oshdi⁶. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar va uni yanada diversifikatsiya qilish sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulishini 2010 yildagi 24 foizdan 2015 yilgacha 28 foizga yetkazish ko‘zda tutilmoqda⁷. Bu borada, mahalliyashtirish dasturi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning ahamiyati katta bo‘lmoqda.

Xususan, Mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida 2013-yilning birinchi choragi 2,1 trillion so‘mlik yoki 2012-yilning shu davriga nisbatan 1,4-marta ko‘p mahsulot ishlab chiqarildi. Zanglamaydigan konsol nasoslar, sintetik ip, yangi turdagi havo, moy va yoqilg‘i filtrlari, bolalar o‘yinchoqlari, akkumulyatorli monobloklar, yer usti transporti uchun xavfsiz oynalar kabi qirqdan ortiq yangi turdagi mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish o‘zlashtirildi. Natijada import o‘rnini bosish bo‘yicha hisoblab chiqilgan samara bir milliard dollardan oshib ketdi yoki bu 2012-yilning shu davridagi ko‘rsatkichdan 20,5 foiz ko‘pdir.

⁶ **I.A.Karimov.** “ Bosh maqsadimiz-keng ko‘lamli islohatlar va modernizatsiya yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirish” nomli 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi/Xalq so‘zi/19.01.2013 №13(5687).

⁷ **Sitatistik to‘plam.** O‘zbekiston respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi(1991-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo‘ljallangan prognozlari.T.:O‘zbekiston/2011.

Mahalliyashtirilayotgan mahsulotlar eksport hajmi 161,7 million dollar, shu jumladan 14 turdagi yangi mahsulot bo'yicha 1,5 million dollarni tashkil etdi.⁸

Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturlari amalga oshirilishi iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va jahon moliyaviy inqirozining oqibatlarini bartaraf etishda muhim rol o'ynadi.

Mahalliyashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, mahalliyashtirish dasturlarini ishlab chiqishda mas'ul vazirliklarning vakolatlari hamda funktsiyalari aniq belgilab berilgan tizimni tashkil etish bo'yicha qabul qilingan hukumat qarorlarining ijrosini mantiqiy oxiriga yetkazish bunga imkon berdi. Unda quyidagi masalalar:


- yangi eksportbob va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarilishini tashkil etish ya'ni iqtisodiyot uchun juda zarur bo'lgan, xorijiy mamlakatlardan keltiriladigan mahsulotlar o'zimizda mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
- ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilashni o'zlashtirish;
- ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirishda tizimli ishlarni amalga oshirishda aniq tadbirkorlik sub'ektlarini manfaatdorligini oshirish amaldagi mexanizmi tashkil etish;
- chet-el mahsulotlarini sotib olish va keltirish uchun sarflanayotgan valyuta mablag'larini tejash;
- ishlab turgan korxonalarni modernizatsiya qilish va yangilarini tashkil etish hisobiga iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish;
- yangi ish o'rinlarini yaratish, ya'ni, minglab fuqarolarni muhim ish joylari bilan ta'minlash;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarda xalqaro standartlarni o'zlashtirish hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini va raqobatbardoshligini oshirish masalalari aniq ko'rsatib o'tilgan.

⁸ O'zbekiston Respublikasini 2013-yilning birinchi choragida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari/Xalq so'zi/ 7.04.2013 y.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 iyuldagi «2011-2013 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1590 sonli Qaroriga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 31 yanvardagi «2012 yilda tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish dasturi looyihalarining prognoz parametrlari to'g'risida» gi 22 sonli Qaroriga asosan mamlakatimizning barcha hududlarida mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan loyihalar doirasida samarali natijalarga erishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 18 yanvardagi «2013 yilda Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish prognoz parametrlari to'g'risida» gi №12 sonli Qarorida 2013 yilda tarmoq va hududiy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan mahalliyashtirish dasturi doirasidagi ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan amaldagi 832 ta loyihalarining prognoz ko'rsatkichlari ro'yxati, 2013 yilda dasturdan chiqarilgan PQ-1590 sonli Qarorning 1-ilovasida keltirilgan 82 ta loyiha, 2-ilovasida keltirilgan 46 ta loyihalar ro'yxati berilgan.

Mahalliyashtirish dasturi monitoring tizimini samarali faoliyati natijasida mamlakatimizda tarmoq va hududlarda mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmlari ortganining guvohi bo'lamiz. Birgina misol, ushbu mahalliyashtirish dasturi doirasida o'tgan 2012 yilda 1190 dan ziyod loyiha amalga oshirildi. Bu ko'rsatkich 2005 yilda amalga oshirilgan loyihalar sonidan 5,4 marta ko'p. **(2.1.1 – rasm)** Bunday loyihalarining asosiy qismi O'zfarmosanoat, O'zeltexsanoat, O'zbekneftegaz, O'zkimyosanoat, O'zbekengilsanoat, Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Namangan viloyati, Andijon viloyati hamda Samarqand viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi "Mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring bo'limi" ma'lumotlari.

2.1.1 – rasm. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2005-2013 yillar davomida joriy etilgan loyihalar soni.

Korxonalar tomonidan dastur doirasidagi yangi mahsulot turlarini o'zlashtirib, taklif bilan chiqishlari sababli yil sayin loyihalar soni ko'paymoqda. Mazkur dastur mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kengayishiga ham keng imkoniyatlar yaratayotganligi bois, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yil sayin ortmoqda. Bu ko'rsatkich ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Eng muhimi, mahalliyashtirish dasturi doirasida korxonalarimiz asosiy e'tiborni ichki bozorni import o'rnini bosuvchi, raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirishda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, xususan, chetdan keltirilayotgan xomashyoni o'zimizda tayyorlash, sanoatga ilg'or texnologiyalar keng joriy qilinishiga qaratmoqda.

2012 yilda mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan loyihalarning 605 tasi hududiy loyihalar hisoblanadi. 2011 qaraganda 2012 yilda hududlar kesimida qo'shimcha 6 ta yangi lohiya kiritilgan.

**2011-2012 yillarda mahalliyashtirish dasturining hududlar tasnifidagi
miqdori**


Hududlar nomi	Mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar miqdori		Dasturga kiritilgan loyihalar miqdori	
	2011 y.	2012 y.	2011 y.	2012 y.
Jami	262	265	599	605
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4	4	4	4
Andijon viloyati	26	26	109	108
Buxoro viloyati	6	10	8	14
Jizzax viloyati	3	3	3	3
Qashqadaryo viloyati	8	8	15	15
Navoiy viloyati	4	3	4	3
Namangan viloyati	14	18	20	27
Samarqand viloyati	13	15	24	27
Surxondaryo viloyati	2	2	5	4
Sirdaryo viloyati	3	3	3	3
Toshkent viloyati	20	20	53	55
Farg'ona viloyati	22	18	33	26
Xorazm viloyati	3	4	5	6
Toshkent shahri	134	131	313	310

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi "Mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring bo'limi" ma'lumotlari.

Mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan turli yo'nalishdagi loyihalar sonining ortishi shubhasiz, O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishga imkon berdi. 2012 yilda ushbu dasturga kiritilgan korxonalar tomonidan 8675,1 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, qariyb 1030,6 mln. AQSh dollari qiymatidagi

mahsulot chetga eksportga chiqarildi. Natijada mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 2010 yilga qaraganda 1,5 barobar oshdi. Import o'rnini bosish bo'yicha yakuniy samaradorlik (avtomobillarni hisobga olmaganda) 4590 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. (2.1.2- rasm).

Shunisi e'tiborliki, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hisobiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish keskin oshdi. Jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari, gazlamalar, trikotaj buyumlari, gilam va gilam mahsulotlari, galantereya va xo'jalik tovarlari ishlab chiqarish hajmi ko'paydi, shuningdek, yassi ekranli televizorlar, yangi turdagi kimyo vositalari va boshqa mahsulotlar o'zlashtirildi. Respublikamizda oldingi yillarda import juda katta bo'lgan neft - kimyo, elektrotexnik vositalar, qora va rangli metal bummyulari, qurilish materillari, shisha, to'qimachilik buyumlari va bir qator boshqa tovarlarni ishlab chiqarish hajmi oshdi.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi "Mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring bo'limi" ma'lumotlari.

2.1.2- rasm. Mahalliyashtirish dasturiga kiritilga korxonalarining 2010-2012 yillar davomida mahsulot ishlab chiqarish hajmlari.

2012 yilda ushbu dastur doirasida 8,6 trln. soʻmdan ortiq qiymatdagi mahsulot yaratildi. Hududiy loyihalarning ishlab chiqarish hajmi 1,44 trln. soʻmni tashkil etdi. Oʻtgan yilda hududlar tasnifida avvalgi yilga qaraganda 398041,3 mln.soʻm koʻp mahsulot ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishga tushirilayotgan ishlab chiqarish quvvatlari O'zbekistonning eksport salohiyati oshishiga ijobiy ta'sir etmoqda. Ayniqsa, eksportni rag'batlantirish, tayyor mahsulotlarni yangi tashqi bozorlarga chiqarish va mamlakatimizda ishlabchiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirishi samarasi o'laroq, mashina va uskunalar, oziq-ovqat tovarlari, qora va rangli metallar, xizmatlar eksporti sezilarli ravishda oshdi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab quvvatlash choralarning izchil amalga oshirilishi barqaror va mutanosib o'sish suratlarini ta'minlash uchun yetarli shart sharoitlarni yaratdi. Hozirda yangi loyihalarni mahalliyashtirish dasturiga kiritish, o'zini oqlamagan, istiqbolsiz loyihalarni dasturdan chiqarish, loyihalar parametrlariga o'zgarishlar kiritish mexnizmlari takomillashtirilib borilmoqda.

Jumladan, 2011 yilda Andijon viloyatiga eng koʻp 15 ta yangi loyihalar, Toshkent shahriga 13 ta, Samarqand viloyatiga 3 ta yangi hududiy loyihalar kiritildi. Farg'ona, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaro, Navoiy, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi tomonidan birorta ham yangi loyiha kiritilmagan.⁹

2011 yilda Mahalliyashtirish dasturi doirasidagi eksportning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulishi 23%, hududiy tasarrufdagi korxonalar loyihalari eksportining ulishi esa 4,7%ni tashkil etadi.

Hududiy tasarrufdagi korxonalar ekportidagi asosiy mahsulotlar: glitserin, kir yuvish kukini, akrip ip kalavasi, kabellar, PVX panellar va romlar, olovga chidamli materiallar, alyumin profillari, poligrafiya va qadoqlash mahsulotlari lak – bo'yoq materiallari va boshqalar.

⁹ O'zbekiston iqtisodiyoti.Axborot tahliliy byulleten. 2011 yil yanvar-dekabr. Toshkent 2012.49-bet.


2011-2012 yillarda mahalliyashtirish dasturining hududlar tasnifida mahsulot ishlab chiqarish hajmi (mln.so'm)

Hududlar nomi	Mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmi	
	2011 y.	2012 y.
Umumiy	1045577,7	1443619,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8377,9	6896,0
Andijon viloyati	41038,1	74616,0
Buxoro viloyati	35265,5	44117,0
Jizzax viloyati	1640,0	4566,0
Qashqadaryo viloyati	4029,9	7314,0
Navoiy viloyati	1131,8	1322,0
Namangan viloyati	36169,8	53931,0
Samarqand viloyati	46224,0	67227,0
Surxondaryo viloyati	812,4	692,0
Sirdaryo viloyati	5542,1	8243,0
Toshkent viloyati	72542,5	58134,0
Farg'ona viloyati	14592,3	25855,0
Xorazm viloyati	677,1	6313,0
Toshkent shahri	777534,3	1084393,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi "Mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring bo'limi" ma'lumotlari.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida hududiy korxonalar tomonidan 2011 yilda amalga oshirilgan eksport operatsiyalarida Toshkent shahri korxonalari yetakchi hisoblandi. 2.1.3-rasmda viloyat korxonalari tomonidan mahalliyashtirish dasturi doirasida amalga oshirilgan eksport hajmi tasvirlangan.

Qashqadaryo, Navoiy, Surxondaryo va Sirdaryo viloyat korxonalari tomonidan mahalliyashtirish dasturi doirasida 2011 yilda eksport amalga oshirilmagan.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi "Mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring bo'limi" ma'lumotlari.

2.1.5-rasmda. Hududiy korxonalar tomonidan 2011 yilda amalga oshirilgan eksport hajmi (ming AQSH doll.).

Mahalliyashtirish dasturi doirasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar tufayli, ilg'or korxonalarining aksariyatida ishlab chiqarilayotgan 100 foiz sifatli mahsulotlar eksport qilinmoqda. Masalan, Izboskan tumanining Chuvama qishlog'ida Xitoyning «Nanyang redcotton angel textile» kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan korxonada zamonaviy uskunalar bilan jihozlanib, unda o'tgan yil davomida 2200 tonnadan ziyod kalavaip tayyorlab, mahsulotning barchasini eksport qildi. Aytish joizki bu kabi korxonalar sonini tobora ortib borishi sharofati bilan sharofati bilan Andijon viloyatida mahalliyashtirish dasturi asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning to'qqiz oyi mobaynida 133 foizga

o'sdi, Bu borada jizzax viloyatida olib borilayotgan ishlar ham keng ko'lamli tus olmoqda. Jumladan, 2009-2012 yillarda viloyatning sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan hududiy dasturga muvofiq, loyiha qiymati 36 mln AQSh dollariga teng va yiliga 18 ming tonna paxta tolasini qayta ishlashga mo'ljallangan "Jizzax plasteks" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi korxonaga ishga tushirilmoqda. Korxonaning asosiy maqsadi davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda, mahalliy xomashyodan sifatli va raqobatbardosh yengilsanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirishdir. Korxonaga ishga tushirilgandan so'ng, bu erda 1300 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi.¹⁰

Shu o'rinda aytish joizki, 2012 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining quyidagi asosiy yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi tasdiqlangan prognoz parametrlarni bajarishga imkon berdi:

-2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi dastur, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashning tarmoq dasturlari, 2011 yilgi Investitsiya dasturi, 2011-2013 yillarda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi, ijtimoiy-iqtisodiy va industrial rivojlantirish hududiy dasturlari doirasida eng muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida bugungi kunda 250 mingdan ortiq ishchi ish bilan ta'minlandi.¹¹

Tashkil etilgan korxonalar va ish o'rinlarining asosiy qismi yengil, to'qimachilik, avtomobil, kon-metallurgiya, neft va gaz hamda kimyo sanoati tarmoqlariga to'g'ri keldi. 2011 yilda mamlakat bo'yicha 828 ta ishlab chiqarish ob'yekti, shu jumladan oziq-ovqat sanoatda (279 ta), qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida (234 ta), yengil sanoatda (201 ta), yog'ochni qayta ishlash

¹⁰ Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish taraqqiyotning muhim omili/O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi 1-2011/13-bet.

¹¹ Приоритеты 2013: высокие темпы роста, стабильность и рост конкурентоспособности/ Экономические обозрение/ 04.03.2013г. / Опубликовано в №1 2013

sanoatida (36 ta), mashinasozlikda (12 ta), kimyo (8 ta), farmatsevtika (3 ta) sanoatida va boshqa sanoat tarmoqlarida (55 ta) ishga tushirildi.¹²

2013 yilda mahalliyashtirish dasturi doirasidagi loyihalarni ishlab chiqarish hajmlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 18 yanvardagi "2013 yilda Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish pragnoz parametrlari to'g'risida" gi №12 sonli Qarori asosida shakillantiriladi. Qarordagi pragnoz parametrlari O'zbekiston Respublikasining PQ -1590 sonli Qarori asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu qaror ijrosini ta'minlash hamda belgilangan pragnoz ko'rsatkichlarning bajarilishini ta'minlash borasida bugungi kunda tegishli chora tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida mavjud yutuqlar bilan birgalikda ayrim muammolar hma mavjud. Jumladan, respublikamiz ishlab chiqarish tarmog'ining tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, bu sohada ayrim nomutanosibliklar borligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Sanoat ishlab chiqarishining asosiy qismi viloyat markazlari va yirik shaharlarda mujassamlanganligi, ayni paytda aholisi zich, bandlik muammosi keskin turgan aksariyat qishloq tumanlarida, kichik shaharlarda esa o'ta sust rivojlanganligi kuzatilmoqda.

Ushbu nomutanosiblikni bartaraf etish uchun sanoat ishlab chiqarishning hududiy joylashuvi va tarkibini tubdan o'zgartirish, bunda mahalliy xomashyoni qayta ishlash bilan shug'ullanadigan va raqobatbardosh tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etishga asosiy e'tibor qaratilishi lozim. Zamonaviy ishlab chiqarish yaxshi rivojlanmagan aholi punktlarida kichik korxonalar yoki mahalliy xomashyo asosida mahsulot ishlab chiqarayotgan yirik korxonalarining filiallarini tashkil etish bo'yicha yanada

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma.-T.: «O'qituvchi» NMIU, 2012.-bet

mukammal ishlangan, maxsus dastur ishlab chiqish hamda ushbu dasturda sub'ektlarga beriladigan imtiyoz va qulayliklar tizimi yaratib berishni nazarda tutish lozim.

2.2 Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasining mahalliyashtirish dasturiga ta'sirining tahlili

Korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish o'zaro chambarchas bog'liq jarayondir. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasining kengayishi tayyor mahsulot, butlovchi buyum va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish uchun shart-sharoit yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 15 dekabrda "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1442-son Qarorida ham ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, ichki sanoat kooperatsiyasi va ishlab chiqarishning mahalliyashtirilishini yanada rivojlantirish, sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, sanoat korxonalarini mamlakatning barcha mintaqalarida joylashtirish va shu asosda import o'rnini bosadigan mahsulot ishlab chiqarilishi, yangi ish joylari yaratilishi hamda aholining ish bilan bandligi o'sishi, odamlarning daromadlari va turmush darajasi yanada oshib borishini ta'minlash muhim ustuvor yo'nalishlarning biri sifatida belgilab berildi¹³.

Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi (XSYAKB) tarixi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.11.2007 yildagi PF-3937-sonli "Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish to'g'risida"gi farmoyishiga muvofiq tashkil etilgan Respublika sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasini o'tkazishdan boshlanadi.

Farmonda XSYAKBni rivojlantirish zarurligi quyidagi "... Respublika sanoatining tez rivojlanib borayotgan tarmoqlari uchun zarur bo'lgan, eksport

¹³ O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2010 yil, 50-son, 472-modda.T.: "O'zbekiston"- 2010.

salohiyatini kengaytirish, savdo va to'lov balansini maqbullashtirish imkonini beradigan butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar, sarflanadigan materiallar va qayta ishlangan xom ashyo zaxiralari ishlab chiqaradigan vatanimiz korxonalarini xar tomonlama qo'llab-quvvatlash, valyuta mablag'larini birinchi navbatda ilg'or texnologiyalar va mashina-uskunalarini import qilishga yo'naltirish uzoq muddatli istiqbolni ko'zlab sanoatni yanada rivojlantirishning eng muxim ustuvor vazifasi deb xisoblansin"¹⁴ tarzidagi vazifalar bilan mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasidagi katta va kichik korxonalar o'z mahsulotlarini umumrespublika miqyosida nafaqat namoyish qilish, balki, shuningdek, ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar va yangiliklar, boshqa tarmoqlar va korxonalar erishayotgan yutuqlar, ishlab chiqarilayotgan materiallar, butlovchi qismlar va hokazolar uchun yaqin istiqboldagi talabni aniqlash imkoniyatiga ham ega bo'lishdi. Uzoq muddatli ishonchli sheriklarni topish, ular bilan shartnomalar tuzish va o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni sotish uchun keyingi yilga buyurtmalar portfelini shakllantirish uchun yaxshi imkoniyat paydo bo'ldi.

Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari:

- sanoat korxonalarining ichki tarmoq va tarmoqlararo kooperatsiyasi doirasida uzoq muddatli xo'jalik aloqalarini shakllantirish hamda kengaytirish uchun zarur qonunchilik bazasini va bozor infratuzilmasini yaratish;
- uskunalar, butlovchi buyumlar, xom ashyo va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni amalga oshirayotgan korxonalarining zarur xom ashyo va kredit zaxiralaridan erkin foydalanishini ta'minlash;
- mahalliy xom ashyo negizida tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish borasida har yili qabul

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 noyabrdagi №PF-3937-sonli «Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish chora- tadbirlari to'g'risida»gi farmoni/ "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami", 2007 yil, 46-47-son, 463-modda/Xalq so'zi, 2007 yil 13 noyabr.

qilinadigan Dasturlarning sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishdagi roli va ahamiyatini oshirish;

- yangi texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ularni yirik va kichik korxonalarda joriy etish imkonini beradigan innovatsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash va amalga oshirish uchun venchur jamg'armalarini, shuningdek infratuzilma obektlarini tashkil etish.

Yarmarkani o'tkazishning birinchi yilida bunday kooperatsiya natijasida import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni yetkazib berish bo'yicha umumiy qiymati 1 trillion so'mlik shartnomalar tuzildi. Bu shartnomalar korxonalariga tejab qolingan erkin valyuta mablag'larini respublikada ishlab chiqarilmaydigan yangi asbob-uskunalar, texnologiyalar, materiallar va ishlab chiqarish-texnologik maqsadidagi boshqa mahsulotlarni xorijdan sotib olishga sarflash imkonini berdi. Buning natijasida erishilgan samaraning salmog'i ikki baravarga oshdi.

2008 yilda respublika sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasiga xalqaro maqomi berildi. Endilikda sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi ikki bosqichda, ya'ni:

- Birinchi bosqich yilning birinchi yarmida o'tkazilib, u hududiy va sanoat yarmarkalarni o'z ichiga oladi. Bu yarmarkalarda, odatda, joriy yil uchun shartnomalar va sanoat mahsulotlarining yangi turlarini o'zlashtirish bo'yicha dastlabki kelishuvlar tuziladi.

- Ikkinchi bosqichda – XSYaKB o'tkazilish paytida yuqorida qayd etilgan kelishuvlar mahsulot yetkazib berish bo'yicha shartnomalarga aylanadi va ishlab chiqaruvchilarning keyingi yil uchun buyurtmalari portfelini shakllantiradi. Bu esa mahsulotlarga talabning yanada oshishiga, xorijiy hamkorlar bilan birga mahalliy xomashyo resurslarini qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish bilan bog'liq doimiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va tovarlarni eksportga yo'naltirish imkonini berdi.

Ta'kidlash joizki, xorijiy xaridorlarning ko'rgazmadagi ishtiroki mahsulotlarga bo'lgan talabni oshiradi, xorijiy hamkorlar bilan birga mahalliy

xomashyo resurslarini qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish bilan bog'liq potentsial imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va tovarlarni eksportga yo'naltirish imkonini beradi.

XSYAKBning asosiy maqsadlari va vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- tarmoq ichida va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish;
- Respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar haqida keng qamrovda ma'lumot berish,
- hamkorlar izlash va o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni mijozlarga yetkazib berish bo'yicha mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida shartnomalar tuzish, shu jumladan ularni eksport qilish bo'yicha shartnomalar tuzishda ko'mak berish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 1 dekabrda «Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor maxsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risi»dagi PQ-1236-sonli qaroriga asosan «O'zekspomarkaz» milliy ko'rgazma kompaniyasi ochiq aksiyadorlik jamiyati xuzuridagi XSYaKB ning ijro etuvchi organi O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi xuzuridagi Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi Direksiyasiga aylantirildi.

XSYaKB direksiyasining asosiy vazifasi quyidagilar:

- har yili O'zbekistonda o'tkaziladigan XSYaKBni ularning ishida qatnashadigan mamlakatimiz korxonalarini xamda ularda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni, shu jumladan mahalliyashtirilayotgan mahsulotlarni, jumladan xorijiy foydalanuvchilar uchun qulay bo'lgan axborot resurslari orqali keng reklama qilishni tashkil qilish;

- XSYaKBga potensial xorijiy sub'yektlarni jalb etishni kengaytirish ishlarini tizimli asosda olib borish;
- XSYaKBda tuzilgan shartnomalarning bajarilishi yuzasidan monitoring tizimi ishlab chiqish va qo'llab boorish.
- birja va yarmarkalarda xorijiy sheriklar bilan eksport-import bitishuvlarini kengaytirish, mahsulotlar eksporti bo'yicha ikki tomonlama hukumatlararo bitimlardan asta-sekin chekinish yo'li bilan mamlakatimiz tovarlari va xizmatlarini eksport qilishning bozor printsiplari va mexanizmlarini kuchaytirish tadbirlarini amalga oshirish, birja va yarmarka savdolari maydonlarida tuziladigan eksport kontraktlarini rasmiylashtirishda ko'maklashish;
- XSYaKBda tuzilgan kontraktlar va shartnomalarni tahlil qilish hamda tegishli loyihalarni Mahalliyashtirish dasturiga kiritish bo'yicha takliflarni shakllantirish, ularni Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning, shu jumladan mahalliyashtirilayotgan mahsulotlarning yagona axborot bazasini shakllantirish va doimiy ravishda yangilab borish, O'zbekiston sanoat korxonalarini mahsulotlarining har yili yangilab boriladigan katalogini elektron va qog'ozli formatda nashr etish.


O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi huzuridagi XSYaKB direktsiyasi mustaqil yuridik shaxs hisoblanadi va davlat korxonasi shaklida tashkil etiladi.

XSYaKB doirasida tuzilgan shartnomalar (kontraktlar)ni ro'yxatdan o'tkazishda, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ular ishlab chiqargan mahsulotlarni yetkazib berish yuzasidan shartnomalar (kontraktlar) tuzishda ko'maklashish xizmatlari uchun undiriladigan vositachilik haqi, xalqaro moliyaviy institutlar va donor tashkilotlarning grant mablag'lari, homiylik yordami, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

Hozirgi vaqtda XSYaKB ishtirokchilari tasarrufida tadbirni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun barcha sharoitlar, shu jumladan, "O'zekspomarkaz" milliy

ko'rgazma kompaniyasining xalqaro darajadagi 4 ta paviloni, ikkita atriumi, 4 ta ochiq maydonchasi, konferens-zallarga ega Xalqaro savdo markazi, mehmonxona majmuasi, jamoat ovqatlanish joylaridan iborat yaxlit infratuzilmasi mavjud.

XSYaKB tadbirlari oralig'ida korxonalar yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish masalalarini hal qiladi, tajriba partiyalari tayyorlanadi va buyurtmachilar bilan kelishib olinadi, mahsulotning texnik parametrlari talab qilinadigan sifat darajasiga olib chiqiladi. Shu bilan birga, aytib o'tish joizki, maydonlarning cheklanganligini hisobga olgan holda, ikkinchi bosqichda ishtirok etuvchi korxonalarni tanlab olish nomzodlarning birinchi bosqich yakunlari bo'yicha muvaffaqiyatli ishtirokidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.



Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot tahliliy byulleten. 2012 yil yanvar-sentyabr. Toshkent 2012. 50-bet.

2.3.1-rasm. XSYaKB ishtirokchilar sonining o'sish suratlari.

Yuqorida tasvirlangan rasmga ko'ra, 2012 yilga kelib yarmarka ishtirokchilari soni dastlabki davrga nisbatan 4,5 barobar, mahsulotlarni xarid qilish shartnomalari soni deyarli 2,3 barobar, ularning hajmi esa 3 barobar o'sgan.

O'tkazilgan yarmarkalar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda sanoat korxonalari kooperatsiyasi chuqurlashib, ularning mazmun-mohiyati boyib bormoqda, sanoatning tayanch tarmoqlari va kichik biznes vakillarining o'zaro munosabatga kirishishi ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarni ishlab chiqarish va

yetkazib berish, texnik talablarni o'rganish va bozorda talab qilinayotgan yangi tovarlarni o'zlashtirishning keng imkoniyatlarini ochib bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 fevraldagi №55 qaroriga muvofiq joriy yilda hudud va tarmoq sanoat yarmarkalari 8-9 martiyun oylarida, XSYaKB esa 23-27 oktyabr kunlari o'tkazildi. Ushbu yarmarkada dunyoning 51 ta mamlakatlaridan jumladan, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Janubiy Koreya, Ispaniya, Singapur, Malayziya, Turkiya, BAA, Eron, Afg'oniston, MDH davlatlari va boshqalardan ishtirokchilar tashrif buyurishdi. (2.3.1-jadval)

Korxonalar, vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari va hududlar tasarrufidagi korxonalar tomonidan 2012 yilda 4174,8 mlrd.so'mga mahsulot yetkazib berilgan bo'lib, bu shartnomalarning V Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasida tuzilgan shartnomalar hajmiga nisbatan 118,1% ga va 2011 yil ko'rsatkichlariga nisbatan esa 1,49 barobar ko'proqdir.

Korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish o'zaro chambarchas bog'liq jarayondir. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasining kengayishi tayyor mahsulot, butlovchi buyum va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish uchun shart-sharoit yaratadi.


Ma'lumki, mahalliyashtirish jarayoni iqtisodiyotning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash, uning tashqi omillarga bog'liqligini kamaytirish, ishlab chiqarish jaraenlariga yangi, samarali texnologiyalarni tatbiq qilishni jadallashtirish, mahalliy xomashyo va ishlab chiqarish resurslaridan keng foydalanish, shu asosda zamonaviy raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, valyuta mablag'laridan tejamli va oqilona foydalanish, shuningdek, yangi ish joylarini yaratish imkonini beradi.

VI Xalqaro sanoat yarmarkasi va koopertasiya birjasida ishtirok etgan mamlakatlar ro'yxati

№	Mamlakatlar	Qatnashchilar miqdori	№	Mamlakatlar	Qatnashchilar miqdori
1	Avstraliya	2	26	Xitoy	112
2	Afg'oniston	39	27	Koreya	56
3	Azarbayjon	8	28	Latviya	1
4	Bangladesh	2	29	Litva	1
5	Belarussiya	20	30	Malayziya	2
6	Beliz	3	31	Moldova	2
7	Bolgariya	2	32	Niderlandiya	1
8	Buyuk Britaniya	80	33	OAE	26
9	Britaniya oroli	3	34	Oman	7
10	Vetnam	1	35	Pokiston	8
11	Germaniya	42	36	Polsha	19
12	Gonkong	7	37	Portugaliya	2
13	Gretsiya	2	38	Rossiya	251
14	Gruziya	5	39	Ruminya	1
15	Misr	1	40	Saudiya Arabistoni	3
16	Isroil	1	41	Singapur	1
17	Hindiston	15	42	Slovakiya	2
18	Eron	32	43	AQSH	4
19	Irlandiya	3	44	Tojikiston	7
20	Islandiya	1	45	Turkmaniston	15
21	Ispaniya	1	46	Turkiya	52
22	Italiya	12	47	Ukraina	27
23	Yaman	1	48	Chexiya	4
24	Qozog'iston	106	49	Shvetsariya	10
25	Qirg'iziston	3	50	Yaponiya	6
	Jami			1012	

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi "Mahalliy lashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring bo'limi" ma'lumotlari.

Korxonalar, vazirliklar, idoralar, xo‘jalik birlashmalari va xududlar tasarrufidagi korxonalar tomonidan V Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasida 2012 yil uchun 3886,7 mln. dollarga eksport kontraktlari tuzilgan bo‘lib, bu kontraktlar 2011 yil ko‘rsatgichlariga nisbatan esa 1,43 barobar ko‘proqdir.




Manba: O‘zbekiston iqtisodiyoti. Axborot tahliliy byulleten. 2012 yil yanvar-sentyabr. Toshkent 2012. 51-bet.

2.3.3-rasm. XSYaKBda tuzilgan shartnomalar hajmining o‘shish tendensiyasi.

Mahalliy lashtirish dasturi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar ko‘lami ayniqsa, oziq-ovqat sanoatida ortib bormoqda. Jumladan, O‘zbekiston qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha jahonda yuqori mavqega ega ekanligi, agrar sohaga qaratayotgan e‘tibori, tarmoqda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi yil sayin ortib bormoqda. Bu esa, mamlakatimizda qayta ishlash sanoatining taraqqiy etishiga xizmat qilayotgani bilan ham ahamiyatlidir. Islohotlar tufayli, diyorimizda yetishtirilayotgan mahsulotlar o‘zimizda qayta ishlanib, iste‘mol bozori arzon va sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirilmoqda. Bundan tashqari, tizimga zamonaviy texnika va texnologiyalar jalb etilib, yuzlab yangi korxonalar foydalanishga topshirilmoqda. Poytaxtimizda muntazam ravishda o‘tkazilib kelinayotgan «Food Week Uzbekistan» hamda «Agri Tek Uzbekistan» xalqaro ko‘rgazmalari ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, qayta ishlash sanoatini tejamkor texnologiyalar

bilan jihozlash borasida muhim bozor vazifasini o'tamoqda. Chunki, tadbirkorlarimiz ushbu ko'rgazmalar orqali xorijda ishlab chiqariladigan ilg'or texnologiyalar, uskunalar haqida qimmatli ma'lumotlar oladi, bevosita tanishadi va hamkorlik qilish uchun o'zaro manfaatli shartnomalar tuzadilar.

Tarmoqlararo va mintaqaviy sanoat yarmarkalarida 2012 yilda tuzilgan shartnomalar bo'yicha ma'lumotlar asosida mamlakat bo'yicha jami qariyb 4,9 trln.so'm hajmida shartnoma imzolangan bo'lib, shulardan eng katta ulush Toshkent viloyatiga (8,2 mlrd. so'm), Toshkent shahriga (3,354 mlrd. so'm), Samarqand viloyatiga (2,614 mlrd. so'm), Jizzax viloyatiga (2,348 mlrd. so'm), Qashqadaryo viloyatlariga (2,224 mlrd. so'm) to'g'ri kelmoqda.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi "Mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring bo'limi" ma'lumotlari.

2.3.3-rasm. Hududiy tasarrufdagi korxonalar tomonidan VI XSYaKB doirasida 2013 yil uchun tuzilgan eksport shartnomalar hajmi (mln.doll.)

VI Xalqaro sanoat yarmarkasi va koopertasiya birjasining asosiy ko'rsatkichlari

Parametr nomlari	O'lchov birligi	Ko'rsatkichlar						2011ga nisbatan o'sish, foizda
		2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil		
Qatnashchilar miqdori		276	378	715	1030	1146	111	
<i>shundan kichik biznes vakillari</i>		120	226	435	678	850	125	
Ishtirokchilar		29000	41200	60400	70815	82050	116	
<i>shundan chel elliklar</i>		50	602	758	853	1012	119	
Imzolangan shartnomalar		1487	2530	2300	3668	4222	115	
Hajmi	mlrd.so'm	1362,2	1928,9	2614	3604,5	4905,1	136	
Ekspart bitimlari			426	343	505	534	106	
Hajmi	mln.doll.		2276,5	2719	3882,2	5157,3	133	

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi "Mahalliy lashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring bo'limi" ma'lumotlari.

Jadval ko'rsatkichlariga yaxshilab e'tibor qaratadigan bo'lsak, Toshkent shahrida 2009 yilda 89103,1 mln. so'mlik ish bajarilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich 182,8 mlrd. so'mga yetdi. Xuddi shunday katta o'zgarishlar Toshkent viloyati (27,383 mlrd. so'mga ko'paydi), Andijon viloyati (8,65 mlrd. so'mga oshdi), Buxoro viloyatlarida (10,351 mlrd. so'mga ko'paydi) kuzatildi.

2.3.1 – jadval.

**Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasining 2009-2012
yillardagi ko'rsatkichlari**

Viloyatlar	2009 yil (mln. so'm)	2010 yil (mln. so'm)	2012 yil (mlrd. so'm)
Jami	145,9	225,6	331,8
Qoraqalpog'iston Res.	1,9	1,7	4,8
Andijon	7,4	12,7	16,1
Buxoro	3,6	7	14
Jizzax	3,8	6	10,5
Qashqadaryo	2,1	2,5	4,6
Navoiy	2	2,4	5,5
Namangan	2,1	5,7	11,7
Samarkand	5,1	4	10
Surxondaryo	1,1	1,5	2,8
Sirdaryo	2,4	2,5	3,6
Toshkent vil.	19,4	30,2	46,8
Farg'ona	3,2	8,4	11
Xorazm	2,3	3,1	7,6
Toshkent shahri	89,1	139,2	182,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi "Mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring bo'limi" ma'lumotlari.

Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiyasi faoliyatini yanada mustahkamlashda quyidagi tadbirlar ko'rib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

Birinchidan, Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi yarmarkalarini uch bosqichda ya'ni hududlar va xalqaro sanoat yarmarkalariga qo'shimcha ravishda uchunchi bosqich tuman sanoat yarmarkalarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Agar tumanlarda ham yarmarka faoliyatlari yo'lga qo'yilsa chekka hududlarda ham ishlab chiqarish jarayoni yanada rivojlanar edi.

Ikkinchidan, Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi ish faoliyatining davomiyligini ta'minlash ya'ni, yil davomida yarmarkadan keyingi davrlarda ham tadbirkorlar va iste'molchilarni o'zaro kelishuvlarining uzluksizligini ta'minlovchi aloqa jarayonlarini takomillashtirish lozim.

Uchunchidan, TIAISV mamlakatimizga import sifatida kirib kelayotgan tovarlarning analizini muntazam olib boradi va eng ko'p import sifatida kirib kelayotgan aholining ehtiyoji yuqori bo'lgan tovarning ro'yxatini Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etadi. Iqtisodiyot vazirligi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahr hokimligiga ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarishni taklif etadi. Ushbu taklif etilgan mahsulotlarni mahalliy hom ashyolar asosida ishlab chiqarilishini ta'minlashda sanoat yarmarkasining ahamiyatini yanada oshirish kerak.

2.3 Mahalliyashtirish dasturining samaradorlik tahlili

Har qanday jamiyatda ham ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish iqtisodiy taraqqiyotning asosini yaratadi. Shu sababli ham, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish jiddiy masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi paytda ko'pgina resurslar chegaralangan, ularning aksariyati (metall, qurilish materiallari va boshqalar) xorijdan keltiriladi. Shuning uchun mavjud resurslardan oqilona foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, milliy va xorijiy sarmoyalarni ustuvor sohalarga joylashtirish kabi samaradorlikni oshirish vositalariga yetarli darajada e'tibor berish talab qilinadi.

Samaradorlikning umumiy holati, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik -

chegaralangan resurslardan oqilona foydalangan holda erishilgan, aholining ijtimoiy iqtisodiy iste'mol darajasini yuksaltirishdir.

Mahalliyashtirilgan mahsulotlarning samaradorligi ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatimizda mahalliy resurslardan foydalanilgan holda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xuddi shunday import sifatida kirib keladigan mahsulot o'rnini bosishi, dastur doirasida yaratilgan loyihalar hisobiga yangi ish o'rinlari yaratilishi eng asosiysi aholini arzon va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash mahalliyashtirish dasturining samaradorligini belgilab beruvchi asosiy yo'nalishlar hisoblanadi.

O'zbekistonda import o'rnini bosuvchi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, yuqori darajada qo'shilgan qiymat orttirmasini hosil qilish bugungi kunda mamlakatimiz sanoat korxonalarida oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. 2012 yilda yaratilgan mahsulotlarning import o'rnini bosish samaradorligi 4,0 mlrd.doll.ni tashkil etdi. Bu erkin muomiladagi 2363 mln.doll hajmidagi valyutani iqtisod qilish imkonini berdi. Yuqoridagi fikrimizning tasdig'ini 2012 yilda quyidagi hududiy korxonalar tomonidan mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar TIF TN kodi bo'yicha o'xshash tovarlari importini hududiy guruhlar misolida ko'rib o'tishimiz mumkin.

I guruh:

Toshkent shahri – 873,8 mln.doll.: payvandlash elektrodlari («NKMK» DK, «O'zmetkombinat» OAJ); Elektron hisoblagichlar («Elektron xisoblagich» QK); Muzlatgichlar («Sino» OAJ, «Roison Electronics» QK); Polietilen quvurlari («Shurtanskiy GKK» UShK, «Zamonaviy polimer kuvur» MChJ, «Maxsus polimer zavodi» MChJ); Bir martalik shprits va sistemalar («Uz Koreya Medikal» QK, «MEDIZ AG» MChJ, «Asia Trade» MChJ).

Toshkent viloyati – 57,7 mln.doll.: Bir martalik shprits va sistemalar («Uz Koreya Medikal» QK, «MEDIZ AG» MChJ, «Asia Trade» MChJ); Muzlatgichlar («Sino» OAJ, «Roison Electronics» QK); Kir yuvish kukunlari («Buxoro Baxor» QK, «Raxmatullo Umar» XK).

Sirdaryo viloyati – 17,1 mln.doll.: Payvandlash elektrodlari (« NKMK» DK, «O‘zmetkombinat» OAJ); Konditsionerlar («Sino» OAJ, «Roison Electronics» QK, «Neo Sun Light» QK);

Jizzax viloyati – 19,9 mln.doll.: Payvandlash elektrodlari (« NKMK» DK, «O‘zmetkombinat» OAJ); Polietilen quvurlari («Shurtanskiy GXX» UShK, «Zamonaviy polimer kuvur» MChJ, «Maxsus polimer zavodi» MChJ).

II guruh:

Buxoro viloyati – 13,2 mln.doll.: Polietilen va polipropilen quvurlari («Shurtanskiy GXX» UShK, «Zamonaviy polimer kuvur» MChJ, «Maxsus polimer zavodi» MChJ, «Plasterm Technology» QK, «Mega sentrum» MChJ, «Maxbild group» MChJ); Bir martalik shprits va sistemalar («Uz Koreya Medikal» QK, «MEDIZ AG» MChJ, «Asia Trade» MChJ)

Navoiy viloyati – 6,3 mln.doll.: Bir martalik shprits va sistemalar («Uz Koreya Medikal» QK, «MEDIZ AG» MChJ, «Asia Trade» MChJ); Polietilen va polipropilen quvurlari («Shurtanskiy GXX» UShK, «Zamonaviy polimer kuvur» MChJ, «Maxsus polimer zavodi» MChJ, «Plasterm Technology» QK, «Mega sentrum» MChJ, «Maxbild group» MChJ)

Samarqand viloyati – 55,1 mln.doll.: Payvandlash elektrodlari (« NKMK» DK, «O‘zmetkombinat» OAJ); Bir martalik shprits va sistemalar («Uz Koreya Medikal» QK, «MEDIZ AG» MChJ, «Asia Trade» MChJ), Akkumulyatorlar («Jizzax akkumulyator zavodi» OAJ).

III guruh:

Andijon viloyati – 20,3 mln.doll.: Konditsionerlar («Sino» OAJ, «Roison Electronics» QK, «Neo Sun Light» QK); Polietilen va polipropilen quvurlari («Shurtanskiy GXX» UShK, «Zamonaviy polimer kuvur» MChJ, «Maxsus polimer zavodi» MChJ, «Plasterm Technology» QK, «Mega sentrum» MChJ, «Maxbild group» MChJ); Bir martalik shprits va sistemalar («Uz Koreya Medikal» QK, «MEDIZ AG» MChJ, «Asia Trade» MChJ).

Farg‘ona viloyati – 23,3 mln.doll.: Payvandlash elektrodlari («NKMK» DK, «O‘zmetkombinat» OAJ); Bir martalik shprits va sistemalar («Uz Koreya

Medikal» QK, «MEDIZ AG» MChJ, «Asia Trade» MChJ); Kir yuvish kukunlari («Buxoro Baxor» QK, «Raxmatullo Umar» XK).

Namangan viloyati – 17,8 mln.doll.: Bir martalik shprints va sistemalar («Uz Koreya Medikal» QK, «MEDIZ AG» MChJ, «Asia Trade» MChJ); Polietilen quvurlari («Shurtanskiy GKK» UShK, «Zamonaviy polimer kuvur» MChJ, «Maxsus polimer zavodi» MChJ).

IV guruh:

Xorazm viloyati – 22,0 mln.doll.: Bir martalik shprints va sistemalar («Uz Koreya Medikal» QK, «MEDIZ AG» MChJ, «Asia Trade» MChJ); Polietilen quvurlari («Shurtanskiy GXK» UShK, «Zamonaviy polimer kuvur» MChJ, «Maxsus polimer zavodi» MChJ); Kaltsiy karbidi (XICHF «Yog‘du»)

Surxondaryo viloyati – 6,9 mln.doll.: Polietilen quvurlari («Shurtanskiy GXK» UShK, «Zamonaviy polimer kuvur» MChJ, «Maxsus polimer zavodi» MChJ); Muzlatgichlar («Sino» OAJ, «Roison Electronics» QK); Kir yuvish mashinalari («Zenit Electronics» QK).

Qorakalpog‘iston Respublikasi – 8,7 mln.doll.: Polietilen va polipropilen quvurlari («Shurtanskiy GXK» UShK, «Zamonaviy polimer kuvur» MChJ, «Maxsus polimer zavodi» MChJ, «Plasterm Technology» QK, «Mega sentrum» MChJ, «Maxbild group» MChJ)

Qashqadaryo viloyati – 9,6 mln.doll.: Kir yuvish kukunlari («Buxoro Baxor» QK, «Raxmatullo Umar» XK); Konditsionerlar («Sino» OAJ, «Roison Electronics» QK, «Neo Sun Light» QK); Polietilen quvurlari («Shurtanskiy GXK» UShK, «Zamonaviy polimer kuvur» MChJ, «Maxsus polimer zavodi» MChJ).

Ishlab chiqaruvchilarni mahsulot ishlab chiqarishdagi yuqoridagi kabi samaradorlikga erishishida soliq va bojxona imtiyozlaridan oqilona foydalanishayotgan asos bo‘lmoqda.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va yengilliklar mahalliyashtirish dasturning ijrosini ta'minlashda o'ziga xos rol o'ynaydi. Mahalliy tovar (ish, xizmat) ishlab chiqaruvchi korxonalariga quyidagi yengilliklar joriy etildi:

- xalqaro moliya institutlari, donor mamlakatlar, xorijiy davlatlar hukumatlari, boshqa norezidentlar mablag‘lari hisobidan O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiriladigan loyihalar bo‘yicha xalqaro tenderlarda xorijiy qatnashchilar bilan teng sharoitlarda, jumladan ishlab chiqarilgan tovar (ish, xizmat)larni yetkazib berishga chet el valyutasida shartnomalar tuzgan holda ishtirok etish huquqi berildi.

- O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalanish nazarda tutilgan o‘zida ishlab chiqarilgan tovar (ish, xizmat)larni yetkazib berishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bitimlar shartida norezidentlar bilan xorijiy valyutada shartnomalar tuzish huquqi berildi.

Mazkur shartnomalar xizmat ko‘rsatayotgan vakolatli bankda hisobga qo‘yilgan holda, eksport shartnomalariga tenglashtirilishi va eksport qiluvchi korxonalardek soliq imtiyozlari joriy etilishi belgilangan.

1) 2012 yil 1 apreldan boshlab yangi qurilish, mavjud ishlab chiqarishlarni modernizatsiyalash va texnologik yangilashga valyuta kreditlari bo‘yicha asosiy qarzni qaytarishga joriy to‘lovlar bo‘yicha yo‘naltiriladigan valyuta tushumi qismini vakolatli banklarga majburiy sotishdan asosiy qarz batamom to‘lab bo‘linadigan muddatgaqadar ozod qilindi.


2) Sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatliyadan o‘tkazish, shuningdek laboratoriya testlari va sinovlarini o‘tkazish komplekslarini xarid qilishga yo‘naltiriladigan mablag‘larga yangi texnologik uskunalarni sotib olishda nazarda tutilgan yagona soliq to‘lovi bo‘yicha soliq solinadigan bazani kamaytirishning amaldagi tartibi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun tatbiq etildi.

Ma'lumki, respublikamizda xomashyo zaxiralarining yetarli darajada ekanligi, arzon ishchi kuchi, yaratilgan zamonaviy infratuzilmalar, uzluksiz energiya resurslari mavjudligi, ishlab chiqaruvchi sub'ektlarga soliq va ajratmalardan berilayotgan turli xil imtiyozlar, albatta, iqtisodiyotimizning jadal rivojlanishini ta'minlashda, uning tashqi omillarga bog‘liqligini kamaytirishda muhim omil sanaladi. Buning natijasida esa, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi,

samarali texnologiyalar tatbiq qilinishiga, mahalliy xomashyo va ishlab chiqarish resurslaridan unumli foydalanishga, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishi ko'paytirilishiga erishilmoqda. Bularning barchasi, mahsulot ishlab chiqaruvchi sub'ektlarning valyuta mablag'laridan tejamli va oqilona foydalanishiga, yangi ish joylari yaratilishiga xizmat qilmoqda.

2012 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining tasdiqlangan parametrlariga muvofiq, 967,4 mingta ish o'rni tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Haqiqatda esa 973,5 mingta ish o'rni yaratildi yoki dastur ijrosi 0,6 foizga ortig'i bilan bajarildi¹⁵.

Mamlakatimizda yangi ish o'rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar, mikrofirmalar tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, pudrat asosidagi qurilish, shu jumladan, uy-joylarni ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish ishlari ko'lamini kengaytirish hisobidan yaratilmoqda.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi "Mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring bo'limi" ma'lumotlari.

2.3.1 – rasm. Mahalliyashtirish dasturi loyihalari hisobiga yaratilgan yangi ish o'rinlari

¹⁵ I.A.Karimov. " Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" nomli 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi/Xalq so'zi/19.01.2013 №13(5687).

Mamlakatimizda hududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi natijasida yaratilgan ish o'rinlari soni ko'paymoqda. Bu esa o'z navbatida aholining ish bilan bandligini ta'minlashga yordam beradi. Xususan, har yili mamlakatimizda mahalliyashtirish dasturi doirasida mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratiladi. 2012 yilda ham ushbu dastur doirasida 1139 ga yaqin ish o'rinlari yaratilgan bo'lib, bu ish o'rinlari asosan yangi loyihalarni ishlab chiqarishga joriy etish hisobiga yuzaga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 29 yanvardagi PQ-1913-sonli «Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatdoshligini yanada oshirish va tovarlarni respublikaga noqonuniy olib kirishga qarshi kurashni kuchaytirish to'g'risida»gi Qarori mahalliyashtirish dasturi loyihalari samaradorligini oshirishda muhim huquqiy asos hisoblanadi. Mazkur qarorning maqsadi respublikaga noqonuniy olib kirilgan va qalbakilashtirilgan tovarlarni sotishga kurashni tashqi savdo faoliyatini tartibga solishning umume'tirof etilgan usullarini qo'llash asosida yanada kuchaytirish, mamlakatimiz korxonalarini tomonidan ichki va tashqi bozorda raqobatdoshli bo'lgan, yuqori sifatli iste'mol tovarlari ishlab chiqishni kengaytirish uchun qulay shart sharoitlar yaratishdir.

III BOB. MAHALLIY ISHLAB CHIQUVCHILARNI QO'LLAB - QUVVATLASH MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.

3.1. Mamlakatda mahalliyashtirish dasturini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

Mahalliyashtirish – import qilinadigan tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallarni mamlakatda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali unga bo'lgan ichki talabni qondirish va eksportini yo'lga qo'yishdir.

2013 yilda iqtisodiyotimizni rivojlantirishning prognoz parametrlariga erishish, uning raqobatbardoshligini ta'minlash, tarkibiy tuzilishini takomillashtirish kabi o'zaro bog'langan vazifalarni hal etishda mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ko'lamini kengaytirish muhim rol o'ynaydi.

Mahalliyashtirish dasturining 2013-2015 yillarga mo'ljallangan istiqbolli dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 30 apreldagi PQ-1961-sonli «Mahalliy iste'mol tovarlari takliflarini kengaytirish va ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi Qarori asosida amalga oshirilmoqda. Qarorda tarmoq va hududlar doirasida 2013-2015 yillar davomida istemol tovarlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan loyihalarning prognoz ko'rsatkichlarini qamrab oladi. Ushbu loyihalar PQ-1590 sonli qarorning 2013 yillarga mo'ljallangan loyihalarga qo'shimcha ravishda kiritilgan yangi 87 ta loyihadir.

2013 yilda tarmoqlar tasnifidagi 32 ta loyiha bo'yicha qo'shimcha ravishda 104 mlrd. So'mlik mahsulot yetishtirish rejalashtirilgan. Jumladan, "Uz Tong Hong" QKsi 2013 yilda 20 ming dona sport to'plari va 5 ming juft sport kiyimlari, "Dream Production" MCHJ QKsi 22,5 ming dona konditsener, "Artel Elektroniks" MCHJ 7,5 ming dona xolodilnik va marozilnik bitovoylari, "White Machine Technology" MCHJ QKsi 7,5 ming dona mikropech ishlab chiqarishni rejalashtirgan.

Tarmoq ishlab chiqaruvchilaridan farqli hududiy loyiha ishlab chiqaruvchilari 54 ta loyiha bo'yicha qo'shimcha istemol tovarlar ishlab chiqarish bo'yicha takliflari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi quyidagi 3.1.2-jadvalda tavsiflangan.

2013-2015 yillar davomida mahalliyashtirish dasturining tarmoqlar tasnifida ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan qo'shimcha loyihalar ro'yxati.

Tarmoq ishlab chiqaruvchilari nomi	2013 yil (mln.so'm)	2014 yil (mln.so'm)	2015 yil (mln.so'm)
Jami	104017,5	147684,5	199249,6
"O'zavtosanoat" AK	5195,2	5195,2	5195,2
"O'zeltexsanoat" Assatsatsiyasi	51709	78519,4	113027,3
"Toshkent mexanika zavodi" OAK	380,4	570,6	760,9
"O'zkimyosanoat" DAK	5130,8	6166,2	7405,6
"O'zmontajqurilish" Assatsatsiyasi	3733,5	4480	5333,4
Oziq ovqat Assatsatsiyasi	6264	9396,2	12528
"O'zfarmsanoat" Davlatkonserni	31604,6	43356,9	54999,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 30 apreldagi PQ-1961-sonli «Mahalliy iste'mol tovarlari takliflarini kengaytirish va ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi Qarorining 3-ilovasi/www.lex.uz, 2013 yil 2 may.

Mahalliyashtirish dasturining ahamiyati borasida muxtaram Prezidentimiz Islom Karimov "Mahalliyashtirish asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi o'tgan yilga nisbatan 40 foizga o'sishi, shu borada eksport qilinadigan mahsulotlarning ulushi esa kamida 12 foizni tashkil qilishi lozim."¹⁶ deb ta'kidlaganlar.

Hozirda yangi loyihalarni Mahalliyashtirish dasturiga kiritish, o'zini oqlamagan, istiqbolsiz loyihalarni dasturdan chiqarish, loyihalar parametrlariga o'zgartirishlar kiritish mexanizmlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 1 dekabrda 1236-sonli Qarori asosida takomillashtirib borilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda investitsiya faoliyati O'zbekiston Respublikasining Investitsion dasturi doirasida amalga oshirilmoqda.

¹⁶I.A. Karimovning «Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish» nomli ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2010 yil, 30 yanvar.

2013-2015 yillar davomida mahalliyashtirish dastrurining hududlar tasnifida ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan qo'shimcha loyihalar ro'yxati.

Viloyatlar	2013 yil (mln.so'm)	2014 yil (mln.so'm)	2015 yil (mln.so'm)
Jami	96053,4	110068,2	118802,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	529,2	529,2	529,2
Andijon	2947,2	2947,2	2947,2
Buxoro	2110	2110	2110
Qashqadaryo	-	-	81
Navoiy	935	1591	2267
Namangan	1200,8	2453,6	2605
Samarkand	4495,8	4495,8	4495,8
Surxondaryo	170	340	510
Sirdaryo	-	1000	4000
Toshkent vil.	11562,4	11748,4	11859,4
Farg'ona	250	11000	15500
Xorazm	4000	4000	4045
Toshkent shahri	67853	67853	67853

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 30 apreldagi PQ-1961-sonli «Mahalliy iste'mol tovarlari takliflarini kengaytirish va ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi Qarorining 3-ilovasi/www.lex.uz, 2013 yil 2 may.

Investitsiyaning ahamiyati to'g'risida Prezidentimiz Islom Karimov "2012-yilda mamlakatimizning yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishini ta'kidlar ekanmiz, buning boisi va omilini avvalambor iqtisodiyotimizga yo'naltirilgan kapital mablag'lar, investitsiyalar tobora o'sib borayotganida, bu ko'rsatkich yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foizni tashkil etganida, deb hisoblashimiz zarur."¹⁷ degan fikrni ta'kidlab o'tdilar.

¹⁷ I.A.Karimov. " Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" nomli 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga

Barcha dasturlar har yili Hukumat qaroriga asosan qayta ko'rib chiqiladi va qo'shimchalar kiritiladi. Kelgusi yildagi investitsion dasturni shakllanishi joriy yilning boshidan quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

- Vazirliklar va joylardagi hokimiyat organlari investitsion takliflarni ishlab chiqadi.

- Vazirliklar va joylardagi hokimiyat organlarining investitsion takliflari kelgusi yil davlat byudjetiga oldindan kelishish uchun iqtisodiyot vazirligiga, moliya vazirligiga ko'rib chiqish uchun beriladi.

- Iqtisodiyot vazirligi hamma kelib tushgan investitsion takliflarni ma'lumotlar bazasiga kiritadi va ularni ekspertiza qiladi.

- Loyihalarni ekspertiza qilgandan so'ng, iqtisodiyot vazirligi davlatning birinchi darajali va boshqa mezonlariga asosan investitsion takliflarni tanlab oladi.

- Iqtisodiyot vazirligi tomonidan investitsion dasturning loyihasi ishlab chiqiladi va kelgusi yil davlat byudjeti loyihasiga kiritish uchun moliya vazirligiga taqdim etadi.

- Investitsion dasturning loyihasi Hukumatga tasdiqlash uchun kiritiladi.

Investitsion dasturga kiritilgan ayrim loyihalar o'zining murakkabligi, tarkibi va o'lchami bilan aniq loyiha emas, balki ko'proq investitsiya dasturini tashkil qilmoqda. Bu esa o'z navbatida avvalambor loyihani amalga oshirishda katta xatarni keltirib chiqarmoqda, qolaversa darhol katta mablag' solish majburiyati bilan chet el investitsiyasini jalb qilishni qiyinlashtirmoqda.

Respublikada yaratilgan qulay investitsiya muhiti birinchi navbatda mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan tavsiflanadi. Qabul qilingan qonun hujjatlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Fuqarolik, Soliq, Yer Kodekslari bu muhitning negizini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Investitsiya faoliyati to'g'risida», «Xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida», yangi tahrirdagi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida» kabi va boshqa qonunlarda investorlarga beriladigan kafolatlari va

Barcha dasturlar har yili Hukumat qaroriga asosan qayta ko'rib chiqiladi va qo'shimchalar kiritiladi. Kelgusi yildagi investitsion dasturni shakllanishi joriy yilning boshidan quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

- Vazirliklar va joylardagi hokimiyat organlari investitsion takliflarni ishlab chiqadi.

- Vazirliklar va joylardagi hokimiyat organlarining investitsion takliflari kelgusi yil davlat byudjetiga oldindan kelishish uchun iqtisodiyot vazirligiga, moliya vazirligiga ko'rib chiqish uchun beriladi.

- Iqtisodiyot vazirligi hamma kelib tushgan investitsion takliflarni ma'lumotlar bazasiga kiritadi va ularni ekspertiza qiladi.

- Loyihalarni ekspertiza qilgandan so'ng, iqtisodiyot vazirligi davlatning birinchi darajali va boshqa mezonlariga asosan investitsion takliflarni tanlab oladi.

- Iqtisodiyot vazirligi tomonidan investitsion dasturning loyihasi ishlab chiqiladi va kelgusi yil davlat byudjeti loyihasiga kiritish uchun moliya vazirligiga taqdim etadi.

- Investitsion dasturning loyihasi Hukumatga tasdiqlash uchun kiritiladi.

Investitsion dasturga kiritilgan ayrim loyihalar o'zining murakkabligi, tarkibi va o'lchami bilan aniq loyiha emas, balki ko'proq investitsiya dasturini tashkil qilmoqda. Bu esa o'z navbatida avvalambor loyihani amalga oshirishda katta xatarni keltirib chiqarmoqda, qolaversa darhol katta mablag' solish majburiyati bilan chet el investitsiyasini jalb qilishni qiyinlashtirmoqda.

Respublikada yaratilgan qulay investitsiya muhiti birinchi navbatda mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan tavsiflanadi. Qabul qilingan qonun hujjatlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Fuqarolik, Soliq, Yer Kodekslari bu muhitning negizini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Investitsiya faoliyati to'g'risida», «Xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida», yangi tahrirdagi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida» kabi va boshqa qonunlarda investorlarga beriladigan kafolatlar va

imtiyozlar mustahkamlab qo'yilgan. Chet el investitsiyalari oqimini rag'batlantirish maqsadlarida qo'shimcha imtiyozlar va preferentsiyalar berish nazarda tutilgan bir qancha qonun hujjatlari qabul qilingan. Respublikaning eksport-potentsialini kengaytirish va valyuta bilan o'z xarajatlarini o'zi qoplash, mahsulotlar va eksport tovarlari raqobatbardoshligini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratib berish maqsadlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan bir qator qo'shimcha imtiyozlar va preferentsiyalar joriy etildi. Chet el investitsiyalarini jalb etishni yanada rag'batlantirish, respublikaning har bir mintaqasida eksportga mo'ljallangan qo'shma korxonalar tashkil qilish yo'lida Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilinmoqda va amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning eksport qiluvchi sub'ektlar faoliyatini rag'batlantirishga oid qarori¹⁸ bilan barcha mulkchilik shakllaridagi Eksport qiluvchi korxonalar (xom ashyo tovarlarini sotish bundan mustasno) uchun foyda solig'i va mulk solig'i stavkasi umumiy sotish hajmida o'zi ishlab chiqargan va erkin almashtiriladigan valyutaga sotilgan tovar (ish, xizmat)lar eksportidagi ulushiga bog'liq holda kamaytiriladi:

- eksport ulushi 15 foizdan 30 foizgacha miqdorda bo'lganida — 30 foizga;
- eksport ulushi 30 va undan ko'proq foiz bo'lganida — 2 marotaba.eksporter

2016 yil 1 yanvarga qadar respublikadagi o'z mahsuloti hajmining, jumladan yarim tayyor mahsulotlarining (kalava, gazlama, trikotaj gazlama va paxta yigirish chiqindilari) 80 foizi va undan ortig'ini erkin almashtiriladigan valyutaga sotadigan to'qimachilik sanoati korxonalari mulk solig'i to'lashdan ozod qilingan.

Neft va gaz konlarini qidirish va razvedka qilish ishlarini olib borish uchun jalb qilinadigan chet el kompaniyalariga mumkin qadar qulaylik berish shartlari qo'llaniladi. Natijada quyidagilar ta'minlanadi:

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 26 martdagi "Eksport qiluvchi korxonlarni rag'batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi PQ 1731 sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 13-son, 140-modda, T.: "O'zbekiston"-2012 y.

- muayyan hududda qidiruv va razvedka ishlarini olib borishga va mazkur xududda topilgan konlarning istalganidan kushma korxonada tashkil kilyaish yuli bilan yoki kontsessiya shartlarida foydalanishga eksklyuziv xukuk,;

- kontraktda kddiruv va razvedka ishlari olib borish uchun kelishilgan xududlarda sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan resurslar topilmaganda bu ishlarni davom etgirish uchun yangi xududlar berilishida imtiyozli xukuk,;

- kushma korxonaning ta'sis xujjatlarida yoki shartnomasida nazarda tutilgan k,azib olingan neft-gaz, shuningdek ularni qayta ishlash mahsulotlari bir tsismiga egalik va ularni erkin olib chiqib ketish xukuqi;

- sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan konlar topilganda bu konlar keyinchalik "Uzneftgaz" milliy xolding kompaniyasiga foydalanish uchun beriladigan hollarda ularni qidirish va razvedka qilish ishlari bilan bogliq, jami xarajatlarni qoplash kafolati.

Bular bilan bir qatorda neft va gazni qidirish va razvedka ishlarini utkazuvchi chet el kompaniyalari, shuningdek ular ishga jalb etgan xorijiy pudrat va subpudrat tashkilotlari:

- geologiya-razvedka ishlarini utkazish davrida har qanday soliqlar, ajratmalar, tulovlardan;

- qidirish, razvedka va ular bilan bogliq ishlarni utkazish uchun zarur bo'lgan uskuna-jihozlar, moddiy-texnika resurslari va xizmatlar importi bo'yicha bojxona tulovlaridan ozod kdlinadilar.

Umuman olganda, investitsiya loyihasining amal qilish muddati uni tuzishdan ko'zlangan maqsadga bog'liq bo'ladi. Asosiy shart shuki, rejaning muddati yo bir martalik loyihani tugal amalga oshirish uchun yoki ishlab chiqarish quvvati va sotish rejalashtirilayotgan darajaga yetishi uchun, solingan mablag'lar o'zini qoplash muddatini va uning rentabelligini belgilash uchun yetarli bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarish loyihalariga investitsiya mablag'lari solish uchun qulay muhit yaratilganidagina islohotlar sezilarli natijalar bera boshlashiga hech qanday shubha yo'q. Ana shundagina sifatli investitsiya loyihalarini (biznes-rejalar, texnik-

iqtisodiy asoslarni) ishlab chiqish qobiliyati har qanday korxonada faoliyatining zarur qismiga aylanadi.

Jahon amaliyotida investitsiya loyihasining tuzilmasiga qo'yiladigan standart talablar mavjud. Shu bilan birga, konkret loyiha mazmuni uning spetsifikasiga bog'liq bo'lishi mumkin. Bu spetsifika quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- loyiha qaysi tarmoqqa mansubligi; korxonaning katta-kichikligi; loyiha asosiy (strategik) maqsadi (mavjud korxonani kengaytirish yoki yangi korxonani barpo etish); moliyalash shartlari (tashqi manbalarga ehtiyoj bor yoki yo'qligi).

Investitsiya haqidagi qarorlarni tanlash ham katta muammo. Moliyaviy resurslarning cheklanganligi, investitsiya xatarlari mavjudligi va boshqa shu kabi omillar qaror qabul qilishni qiyinlashtiradi. Uzoq muddatli loyihalarni baholash ayniqsa sermehnat ish bo'lib, ular uchun prognoz darajasiga erishish ehtimoldan uzoq. Qarorlarni qabul qilish vaqtida mablag'larni qaysi sohaga: ishlab chiqarishga, qimmatli qog'ozlarga, ko'chmas mulkka, tovarlarga, valyutaga yoki boshqalarga sarflash foydaliroq bo'lishini aniqlab olish muhim. Investitsiya haqida qarorlar qabul qilgan vaqtda quyidagi qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- pulni bankda saqlashga qaraganda ko'proq sof foyda olish mumkin bo'lsagina pul mablag'larini ishlab chiqarishga yoki qimmatli qog'ozlarga investitsiyalash mumkin;

- investitsiyalarning rentabelligi inflyatsiyaning o'sish sur'atlaridan ortiq bo'lganidagina mablag'larni investitsiyalash mumkin;

- diskontlashni hisobga olganda eng rentabelli loyihalargagina mablag'larni investitsiyalash mumkin.

Moliya va investitsiya bilan bog'liq qarorlar o'rtasidagi nisbatlar investitsiyalar yo'nalishlarini hamda ularni shakllantirish manbalarini tanlashni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish, tadqiqotlar va rivojlanish, menejment mablag' solishga turli darajada aloqador va shu sababli investitsiya haqidagi qarorlar bilan bog'liq bo'ladi. Moliyaviy tahlil va hisobot investitsiyalarni baholash usullari bilan shug'ullanadi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilinganidan keyin uni amalga oshirishni rejalashtirish hamda tegishli monitoring tizimini ishlab chiqish zarur. Shu o'rinda investitsiyalashdan keyingi nazorat uchun qo'yiladigan talabni belgilab olish muhim, chunki bunda, u yoki bu loyihaning kelajakda muvaffaqiyatli chiqishi yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashi haqida ma'lumot olish osonroq bo'ladi. Investitsiyalashdan keyingi nazorat bosqichi kelajakda investitsiya haqida qabul qilinajak qarorlarni yaxshilashga qaratilgan bo'lib, u konkret investitsiya loyihasi bo'yicha qabul qilingan qarorga yakun yasaydi. Masalan, yangiliklarga qilinadigan harajatlar tadqiq etilishi hamda kutilgan va rejalashtirilgan natijalar bilan taqqoslanishi mumkin.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ham moliyalashtirilayotgan barcha loyihalar ustidan monitoring olib borishning umumiy tizimi joriy qilingan.

Monitoringning mazmuni "ko'zgu" degan ma'noni anglatadi.

Monitoringni yuritishda quyidagilar ko'zda tutiladi:

1. Amalga oshirilmoqchi bo'lgan loyihada nima ishlab chiqarish ko'zda tutilganligi.

2. Ishlab chiqarish jarayonini bilishlik, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish jarayonini boshidan oxirgacha kuzatib borish.

3. Ishlab chiqarish korxonasining tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik jihatdan asoslanishi va tashkil etilishi.

4. Loyihani moliyalashtirish manbalarini aniqlash va uni moliyalashtirishni amalga oshirish.

Dasturni amalga oshirilishi monitoringi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 noyabrdagi 251-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni tayyorlash va ularning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risida Nizomga va Vazirlar Mahkamasining " Invyestisiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish,

ekspyertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"¹⁹ Qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Dasturning davlat monitoringi:

- investitsiya loyihalarni va, birinchi navbatda, markazlashtirilgan investitsiyalardan foydalangan xrla ruyobga chiqarilayotgan investitsiya loyihalarini o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

- loyihalarni belgilangan tartibda tasdiklangan parametrlarga, tanlov savdolari (tenderlar) shartlariga rioya qilish;

- amalga oshirilayopan loyihalar bo'yicha axborot bazasini shakllantirish;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirishda paydo buladigan muammoli masalalarni kuzatib borish;

- investitsiya ikdimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chikish maksadida amalga oshiriladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan monitoring:

- investitsiya loyihalari tashabbuskorlari tomonidan tashki iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga takdim etiladigan tasdiklangan reja - jadvallarining bajarilishi to'g'risidagi axborotlarni;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan hajmda va muddatlarda takdim etiladigan O'zbekiston Respublikasi bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi to'g'risidagi yig'ma statistika axborotini;

- mavjud va potentsial xorijiy investorlar faoliyatining normativ-xuquqiy bazasini takomillashtirish buincha. ularning takliflarini o'rganish asosida vaqti-vaqti bilan tayyorlanadigan investitsiya muxiti sharxini;

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 7 iyundagi "Invyestisiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspyertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi №110-sonli Qarori/O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 23-son, 238-modda; (2008 y., 20-21-son, 176-modda; 2009 y., 52-son, 574-modda; 2012 y., 8-9-son, 82-modda)/T.: "O'zbekiston"-2012y.

- manfaatdor vazirliklar va idoralar tomonidan takdim etiladigan tezkor axborotlarni;

- markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan loyihalarni o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlash masalalari bo'yicha axborotlarni tahlil qilish va umumlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Mahalliyashtirish - investitsiya jarayonidan keyingi bosqich hisoblanib, o'zlashtirilgan investitsiya mablag'lari hisobiga loyiha tashbbuskorlari turli mahsulot va tovarlarni o'zimizda mavjud resurslar hisobiga tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Mamlakatimizda o'zlashtirilgan jami investitsiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirildi.²⁰ Ushbu jarayon mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishda, mehnat unumdorligini hamda mahsulot sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

3.2. Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan mahalliyashtirish dasturi loyihalarining umumiy ekspertizasi va monitoringini takomillashtirish

O'zbekiston Respublikasining mahalliyashtirish dasturi bu davlat tomonidan xorijiy investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun ustuvor va birinchi galda bajarilishi kerak bo'lgan davlat tomonidan rag'batlantiriluvchi yo'nalishlarni ishlab chiqish vositasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va ular kiritgan mablag'larning yuqori iqtisodiy samaradorligiga erishish uchun mukammal huquqiy baza, tegishli institutlar yaratish tizimidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"²¹gi Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot

²⁰ I.A.Karimov. " Bosh maqsadimiz-keng ko'lamlı islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" nomli 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi/Xalq so'zi/19.01.2013 №13(5687).

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 noyabrdagi PQ-1855-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi Qarori/ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2012 y., 11-son, 326-modda/Xalq so'zi,2012 yil 22 noyabr.

vazirligi tomonidan Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va xo‘jalik sub’ektlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasining 2013 yilgi investitsiya dasturining asosiy parametrlari tasdiqlandi. Ushbu dastur yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni qurishga, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga, transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmalarni jadal rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategik ahamiyatga ega investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ta‘minlash va buning negizida yangi ish o‘rinlarini yaratish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror va jo‘shqin rivojlantirishga erishish maqsadida joriy etildi.

Quyidagilar dasturning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi:

- Ommaviy turar joy qurilishi;
- Zamonaviy kommunikatsiya vositalari, transport va aloqa vositalarini ishlab chiqarish, transport va informatsiya tarmoqlarini yaratish va modernizatsiya qilish;
- Yuqori texnologiyalar. Yuqori texnologik va jahon bozorlarida raqobatbardosh, import mollarining o‘rnini bosa oladigan tovarlarni ishlab chiqarishni tashkil etish;
- Zaxiralarni tejoyvchi ekologik toza texnologiyalar. Mineral boyliklarni yer ostidan qazib olish va tabiiy xom ashyoni tulik va kompleks qayta ishlash uchun eng yangi fan - texnika yutuqlaridan foydalanish;
- Fermerlik va dehqon xo‘jaliklari tarmog‘i, ishlab chiqarish, qayta ishlash, qadoqlash, transportirovka qilish, sotish va shifobaxsh qo‘shilmalari bo‘lgan ekologik va oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha andozalarga amal qilgan holda nazorat qilish texnologiyasini o‘zlashtirib olgan qayta ishlovchi va savdo korxonalarining ko‘magi asosida ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini chiqarish.

2013-yilda ushbu dastur doirasida 370 dan ortiq strategik muhim loyihani amalga oshirishni ko‘zda tutadigan Investitsiya dasturi g‘oyat muhim ahamiyat

kasb etadi. Ushbu maqsadlar uchun ajratilayotgan 13 milliard dollarning 75 foizini ichki manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan mablag'lar, qolgan qismini jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar tashkil etadi. Ishlab chiqarish qurilishi uchun mo'ljallanayotgan jami investitsiyalarning qariyb to'rt dan uch qismini yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun yo'naltirishga to'g'ri kelmoqda. Investitsiya dasturini amalga oshirishda O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tobora muhim o'rin tutmoqda. 2013-yilda faqat Jamg'arma mablag'lari hisobidan qiymati 780 million dollarlik 34 tadan ortiq muhim loyiha, birinchi navbatda, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda barpo etilayotgan ob'ektlarni moliyalashtirish rejalashtirilmoqda²².

Rejalashtirilgan investitsiya mablag'larini samarali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida respublikamizda doimiy monitoring tashkil etiladi. Ushbu monitoring tizimini amalga oshirishda kompleks ekspertiza o'tkazishga alohida e'tibor qaratiladi.

Iqtisodiyotda investitsiya loyihalarini amalga oshirish ehtimoli jihatidan ularni identifikatsiyalash, tekshirish, batafsil ko'rib chiqish, ma'qullash va kompleks ekspertizadan o'tkazish bosqichlarini nazarda tutadi. Kompleks ekspertiza loyiha mahsulotlariga erishish imkoniyatlarini izlashga, loyihani cheklangan resurslar bilan belgilangan vaqt mobaynida va makonda ta'minlash, shuningdek, tegishli texnik vazifalarni hal qilishga qaratiladi.

Dastur ekspertizasi bosqichida uni tadbiq etilishining asoslari yaratiladi. Ekspertizaning vazifasi – jami ijobiy va salbiy oqibatlarni hisobga olgan holda loyihaga baho berishdan hamda tanlovdan iborat bo'ladi. Ekspertiza loyihaning bir necha muhim jihatlarini tahlil qilishni qamrab oladi.

Dastur ekspertizasining texnik jihati g'oyat muhim, chunki loyiha muvozanatlangan muxandislik va texnik tamoyillarga asoslanmog'i lozim. Ekspertizaning bu bosqichida loyihaning tadbiq etish jarayonlari, loyiha uchun

²² Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" nomli 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi/Xalq so'zi/19.01.2013 №13(5687).

yetkazib beriladigan materiallar, uskuna-jihoslar va texnika tizimlarining ishonchliligi; loyihani joylashtirish o'rnining asoslanganligi; loyiha uchun zarur bo'lgan resurslarning mavjudligi va sifati, shu jumladan, ishchi kuchi va rahbar kadrlarning malakasi; loyiha foydalanadigan mavjud infratuzilmaning ishonchliligi: kontraktlar tuzish tartib qoidalari va mexanizmlari, ishlab chiqarish quvvatlari, xizmatlarni sotib olish usullari; loyihana amalga oshirish jadvali muddatlari, fazalari bajarish mumkinligi, natijalar olish fazalari tahlil qilinadi.

Texnik ekspertizani o'tkazida, bizning nazarimizda, loyihada foydalaniladigan texnologiyaga alohida e'tibor berish kerak, bu esa o'z navbatida zamonaviy texnologiyalar to'g'risida axborotni yig'ish usullarini izlashni talab etadi.

Texnik ekspertiza loyihani joriy etishning ish rejasini tekshiradi va xajatlarni tartibga solish tizimini belgilaydi (inflyatsiyani hisobga olgan holda o'zgartirishlar kiratadigan xarajatlarni bo'lib chiqish).

Yirik va murakkab loyihalar ekspertizasi risklarni batafsil tahlil qilishni ham qamrab olishi kerak. Loyihada risklar darajasini kamaytirishga xizmat qiladigan turli o'zgartirishlar kiritish mumkinligi ko'rib chiqiladi va sug'urta yo'li bilan ularni kamaytirish imkoniyatlari aniqlanadi. Loyiha ekspertizasining tijorat jihatida zarur resurslar va xizmatlarni sotib olish va ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish bo'yicha tabdirlarni qamraydi. Ta'minot bo'yicha kontrakt muhimroq, chunki samarasi past xarid faoliyati yanada ko'proq xarajatlarga olib kelishi va loyihadan sof pul daromadi oqimini qisqartirish mumkin.

O'zbekiston sharoitlarida ekspertizani o'tkazish nuqtai nazaridan axborotning aniqligi muhim ahamiyatga egadir. Bu esa tegishli infratuzilmani tashkil qilishni talab etadi.

Loyiha ekspertizasining moliyaviy jihatlari loyihaning moliya rejasini tahlil qilishdan iborat bo'lib, unda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- Investitsiya loyihasining rentabelliligi;
- Moliyaviy risklarni baholash;

- Agar loyiha moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lsa uni amalga oshirish va ishlatish uchun fondlarning mavjudligi va ularning tuzilmasi;
- Zarur tashkiliy o'zgartirishlar.

Moliyaviy ekspertizada quyidagilarga aniqlik kiritiladi, ya'ni yillik moliyaviy yakunlar; loyiha uchun mas'ul bo'lgan tashkilotning istiqbol bahosi, unga ekspluatatsiya xarajatlarini ko'rsatadigan foyda va zarar to'g'risida hisobot ham kiradi; ta'mirlash bo'yicha xarajatlar; amortizatsiya ajratmalari; qarzlar bo'yicha foizlar.

Moliyaviy ekspertizaning asosiy vazifalari moliyaviy istiqbollarning nechog'lik asoslanganligi; xarajatlarni kamaytirish yoki ishlab chiqarish faoliyati ko'rsatkichlarini yaxshilash mumkinligi; zarur aylanma kapital miqdori; qarzlar bo'yicha to'lovlar qoplanishining ta'minlanganligi; boshqa majburiyatlar, masalan, loyiha bilan bog'liq bo'lmagan investitsiyalarni moliyalashtirish majburiyatlari bajarilishini aniqlashdan iborat.

Iqtisodiy ekspertiza loyihani tadbiq etishda milliy resurslardan foydalanish imkoniyatini aniqlaydi. Ushbu resurslardan foydalanishda, raqobat muhitining mavjudligini hisobga olgan holda, foydalanishning to'g'ri yoki noto'g'riligiga javob beradi. Bular bilan bir qatorda loyiha rejasni yaxshilash, uning samaradorligini ko'tarish imkoniyatlarini aniqlaydi.

Loyihalar monitoringi – xarajatlar va daromadlar hamda loyiha bilan bog'liq bo'lgan qaltislikni (tavakkalchilikni) tizimli baholash va ochib berish asosida loyihalarni baholash va undagi natijalar orqali kelajakda samaraliroq va puxta yo'nalishlarni ishlab chiqish usulidir. Loyiha monitoringining asosiy qismi loyiha davrining amaliy bosqichlarid amalga oshiriladi.

Loyihaning daromadlilikini aniqlash loyiha tahlilining vazifasi hisoblanadi. Daromadlilik esa loyihadan olinadigan daromad bilan unga qilingan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Ya'ni loyihaning daromadlilikini aniqlash uchun uning barcha natijalarini aniqlash hamda loyihadan olingan daromadlar unga qilingan xarajatlardan ortish yoki ortmasligini hisoblab ko'rish kerak. Chunki loyihani amalga oshirish uchun bugun qilinayotgan xarajatlar bilan undan

qandaydir vaqt o'tgandan keyin olinadigan daromadlarni bevosita solishtirib bo'lmaydi. Loyihaning ko'pgina aktivlari va inshootlari uzoq muddat xizmat qilishi buning sababi hisoblanadi.

Kompleks ekspertiza jarayonlarining samarali faoliyat yuritishida mamlakatimizda tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu hududlarda ichki va jahon bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni barpo etish va ularning samarali faoliyat yuritishi uchun investitsiyalar, eng avvalo to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish borasida qulay shart-sharoitlarni shakllantirilgan. Erkin iqtisodiy hududlarga jalb qilingan investitsiya mablag'lari umuman respublika korxonalarida o'rtasida mustahkam kooperatsion aloqalar o'rnatish hamda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida mahalliy xomashyo va materiallar negizida yuksak texnologiyali mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishga yo'naltirilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi sharoitda mamlakatimizdagi turli tarmoqlar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasini yanada kuchaytirishda mahalliyashtirish dasturi doirasidagi imkoniyatlaridan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun esa quyidagi yo'nalishlardagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi zarur:

- kichik biznes sub'ektlari tomonidan doimiy ravishda yirik sanoat korxonalarini bilan kooperatsiya aloqalarini o'rnatish mumkin bo'lgan hamkorlik imkoniyatlarini o'rganib borish;

- yirik sanoat korxonalarini bilan hamkorlik aloqalariga kirishish uchun zarur shart-sharoitlar – moddiy-texnika bazasini kuchaytirish, asbob-uskuna va jihozlarni zamonaviy talablar asosida yangilash, ishlab chiqarishga tejamkor texnologiyalarni joriy etish, yuqori sifatli xomashyo va materiallardan foydalanish, eng muhimi – yuqori malakali mutaxassis va xodimlarga ega bo'lishni ta'minlash;

- milliy va xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotidagi kooperatsiya aloqalarini o'rnatish mumkin bo'lgan doimiy hamkorlar to'g'risida doimiy ravishda axborotga ega bo'lish, ularning talablarini o'rganib borish, mazkur talablarni qondirish maqsadida o'z takliflarini muvofiqlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

- davlat tomonidan yirik sanoat korxonalarini mahalliyashtirish dasturiga kiritish tartibini rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlarning joriy etib borilishi;

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida mamlakatda bajariladigan mahalliyashtirish dasturi loyihalari holati, ularning hududlar kesimida bajarilish natijalari va istiqbolari o'rganildi, hamda bu borada turli fikr va mulohazalar ishlab chiqildi. Ular:

1. Mamlakat iqtisodiyotida mahalliyashtirish dasturini samarali amalga oshirish natijasida o'tgan 2012 yilda 1190 dan ziyod loyiha amalga oshirildi. Bu ko'rsatkich 2005 yilda amalga oshirilgan loyihalar sonidan 5,4 marta ko'p. Mavjud iqtisodiy resurslarni to'liq o'rganib chiqish hamda mahalliyashtirish dasturi doirasidagi hududiy va tarmoq korxonalarini ushbu dasturga yanada kengroq jalb etish.

2. Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat tarmoqlarining eksport salohiyati muhim ahamiyatga ega. Xususan, Mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan turli yo'nalishdagi loyihalar sonining ortishi shubhasiz, O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishga imkon berdi. 2012 yilda ushbu dasturga kiritilgan korxonalar tomonidan 8675,1 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, qariyb 1030,6 mln. AQSh dollari qiymatidagi mahsulot chetga eksportga chiqarildi. Mintaqa iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda tarmoq, qayta ishlash va mahalliy proporsiyalarni yaxshilash yo'nalishlarida hamda investitsiya sohasida yanada tub o'zgarishlarni amalga oshirish mahalliy mahsulotlarning eksport salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lar edi.

3. Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash zarurligidan dalolat beradi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish faoliyatini kuchaytirishni talab qiladi. Ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturini rag'batlantirish mexanizmi soliq, byudjet va moliya-kredit yordamida tartibga soluvchi vositalarning hammasini o'z ichiga oladi va iqtisodiyotni investitsiyalash uchun zarur moliyaviy mablag'larning ko'payishiga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida yangi loyihalarni ushbu dasturga kiritish imkonini yuzaga keltiradi. Jumladan, 2012 yilda ushbu dastur doirasida 1139 ga yaqin ish o'rinlari yaratilgan bo'lib, bu ish o'rinlari asosan yangi loyihalarni ishlab chiqarishga joriy etish hisobiga yuzaga keldi.

4. Mamlakatda mahalliyashtirish dasturi loyihalari miqdorini ko'paytirish sifatini oshirishda Xalqaro sanoat yarmakasi va Kooperatsiya birjasi faoliyati kooperatsiya aloqalarini mustahkamlashda alohida ahamiyatga ega. Korxonalar, vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari va hududlar tasarrufidagi korxonalar tomonidan 2012 yilda 4174,8 mlrd.so'mlik mahsulot yetkazib berilgan bo'lib, bu shartnomalarning V Xalqaro sanoat yarmakasi va Kooperatsiya birjasida tuzilgan shartnomalar hajmiga nisbatan 118,1% ga va 2011 yil ko'rsatkichlariga nisbatan esa 1,49 barobar ko'proqdir. Keyingi yillarda Xalqaro sanoat yarmakasi va Kooperatsiya birjasi faoliyatini izchil rivojlantirish darkor.

5. Respublikada mahalliyashtirish dasturini jadallashtirishda inflyatsiya sur'atlarini pasaytirish hamda bank sektori va moliya bozorini rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar ko'rish kerak; byudjet harajatlarini optimallashtirish, asossiz soliq imtiyozlarini qisqartirish hamda soliqqa tortish stavkalarini qayta ko'rib chiqish yo'li bilan umumiy soliq yukini kamaytirish kerak.

6. Mahalliyashtirish dasturi loyihalarining samaradorligi markazlashtirilgan kapital mablag'larni ajratishning asosiy mezoniga aylanishi kerak. 2012 yilda yaratilgan mahsulotlarning import o'rnini bosish samaradorligi 4,0 mlrd.doll.ni tashkil etdi. Bu erkin muomiladagi 2363 mln.doll hajmidagi valyutani iqtisod qilish imkonini berdi. Istiqbolda Mahalliyashtirish dasturi loyihalari samaradorligini oshirish uchun respublika va uning hudud xo'jaligini rivojlantirish uchun birinchi darajali ahamiyatga ega butlovchi buyumlar, materiallar va tayyor mahsulotlarni xarid qilishda iste'molchilar hamda buyurtmachilar ehtiyojini o'rganish lozim.

7. Xususiy investitsiyalar hisobidan moliyalanishi mumkin bo'lgan investitsiya loyihalarida davlatning bevosita ishtirok etishidan voz kechish kerak. Davlatning ustuvor yo'nalishlari jumlasiga infratuzilma loyihalarini investitsiyalashni, iqtisodiyotning yuqori texnologiyali, raqobatbardosh sektorlarini qo'llab-quvvatlashni, strategik ahamiyatga molik korxonalarini barpo etishni kiritish mumkin.

8. Respublikaning uzoq muddatli mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish milliy va chet el kapitallarini iqtisodiyotning real sektoriga erkin ravishda o'tishini ta'minlashga qodir bo'lgan to'laqonli fond bozorini tashkil etishni va uning faoliyat ko'rsatishini talab qilmoqda. Uning samarali ishlashini ta'minlash maqsadida byudjet harajatlarini optimallashtirish va davlat byudjetining taqchilligini noinflyatsion manbalar hisobiga qoplash, ya'ni fond bozorida qarz olish zarur. Byudjet tashkilotlarining bozordan qarz olishi bozordagi foiz stavkalarining shakllanishini va fond bozori rivojlanishini rag'batlantiradi. Bozor ishtirokchilariga samarali ta'sir ko'rsatish mexanizmini yaratish uchun korporativ qimmatli

qog'ozlar bozorini, shuningdek, munitsipal, ipoteka kabi fond bozori yangi segmentlarini rivojlanishini rag'batlantirish lozim.

9. Bank-moliya tizimining faoliyatini kuchaytirish hamda investitsiya jarayonida banklarning rolini oshirish uchun aholining omonatlarini kafolatlash tizimini takomillashtirish; bank depozitlari bo'yicha real foiz stavkalarini ta'minlash; tijorat banklarini ularga xos bo'lmagan soxta fiskal funktsiyalardan ozod qilish va bank tizimini boshqarishning bozor vositalarini qo'llash zarur.

10. Mamlakatda amalga oshirilayotgan mahalliyashtirish dasturi loyihlari sonini va sifatini oshirish kelajakda investitsiya faoliyatini yanada samarali yuritishda asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T "O'zbekiston", 2011 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Investitsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. T.: "O'zbekiston", 1998 y. 719-I-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni. T.: "O'zbekiston", 1998 yil, 609-I-son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari va Farmonlari

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 30 apreldagi PQ-1961-sonli «Mahalliy iste'mol tovarlari takliflarini kengaytirish va ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi Qarorining 3-ilovasi/www.lex.uz, 2013 yil 2 may.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 29 yanvardagi PQ-1913-sonli «Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatdoshligini yanada oshirish va tovarlarni respublikaga noqonuniy olib kirishga qarshi kurashni kuchaytirish to'g'risida"gi Qarori/"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami ", 2013 yil, 7-son, 85-modda/ O'zbekiston ovozi, 2013 yil 30 yanvar.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 noyabrdagi PQ-1855-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi Qarori/ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2012 y., 11-son, 326-modda. Xalq so'zi, 2012 yil 22 noyabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 26 martdagi "Eksport qiluvchi korxonlarni rag'batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi PQ 1731 sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 13-son, 140-modda. T.: "O'zbekiston"-2012 y.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 iyuldagi «2011-2013 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirishga doir

chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1590 sonli Qarori / www.lex.uz. 2010 yil 1 avgust.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 23 martdagi «2010 yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi to'g'risida» gi PQ-1306 sonli Qarori /"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami ", 2010 yil, 12-son, 83-modda.T.: "O'zbekiston"-2010 y.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 1 dekabrda «Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi PQ-1236 sonli Qarori O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami, 2009 yil, 5-son, 40-modda.T.: "O'zbekiston"-2009 y.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 27 yanvardagi «2009 yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi to'g'risida» gi PQ-1048 sonli Qarori / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami, 2009 yil, 5-son, 35-modda. T.: "O'zbekiston"-2009 y.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 18 yanvardagi "2013 yilda Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish pragnoz parametrlari to'g'risida" gi №12 sonli Qarori/www.lex.uz. 20.01.2013 y.

13. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining 2012 yil 18 aprelda "Tasdiqlangan mahalliyashtirish dasturi loyihalari amalga oshirilayotgan korxonalar tomonidan soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi № 39, EG-01/14-1414, 6, 2012-16 va 01-02/8-6 – sonli Qaror/

"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami ", 2012 yil, 20-son, 224-modda. www.lex.uz. 20.04.2012 y.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 21 iyuldagi «Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 154 sonli Qarori. www.lex.uz. 22.07.2010 y.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 7 iyundagi «Invyestisiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspyertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi №110-sonli Qarori/O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 23-son, 238-modda; (2008 y., 20-21-son, 176-modda; 2009 y., 52-son, 574-modda; 2012 y., 8-9-son, 82-modda).T.: "O'zbekiston"-2007 y.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 noyabrdagi №251 - sonli "Investitsiya Loyihalarini tasdiqlash va amalga oshirish monitoringi mexanizmlarini takomillashtirish, muruvvat yordami yuklarini va texnik kumaklashish mablag'larini hisobga olish va nazorat qilish chora - tadbirlari to'g'risida" gi Qarori/"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami ", 2005 yil, 46-son, 350-modda.T.: "O'zbekiston"-2005 y.

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Investitsiya loyihalari xujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash to'g'risida»gi 2003yil 2dekabrdagi 538 – sonli Qarori/"O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plami ", 2003 yil, 12-son, 128-modda.T.: "O'zbekiston"-2003 y.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

18. Karimov I.A.“ Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish” nomli 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi/Xalq so'zi/19.01.2013 №13(5687).

19. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ldi O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, № 14 (5434).

20. Karimov I.A. "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutqi / Xalq so'zi, 2012 yil 15 sentyabr.

21. Karimov I.A.ning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma.-T.: «O'qituvchi» NMIU, 2012.

22. Karimov I.A. «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzani o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua.T: "Iqtisodiyot" -2010 y.

23. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: "O'zbekiston"- 2009.

24. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida"/ T.: "O'zbekiston" -1995 y.

V. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar

25. Qosimov M.S.,Muxamedjanova G.Ya. "Investitsiya loyihalari tahlili", O'quv qo'llanma.-TDIU.Toshkent, 2012.

26. Усманов А.А. ««Организация и управление инвестиционными проектами в условиях модернизации экономики Узбекистана», Рисола, Т.:ТГЭУ, 2012 г., май.

27. Басов А.И. Инновации главное направление инвестиционного процесса // Финансы и кредит. - 2011.-№5 - 253с.

28. Анискин Ю. Инвестиционная активность и экономический рост //

29. Ishmuhamedov A.E., Qosimov M.S., Jumayev Z.A. va Muxamedjanova G.Ya. “Loyiha tahlili”. O’quv qo’llanma. – TDIU. Toshkent, 2006.

30. Ishmuhamedov A.E., Jumayev Z.A. va boshqalar. “Makroiqtisodiyot”. Darslik. – TDIU. Toshkent, 2005.

31. Ishmuhamedov A.E. “O’zbekiston milliy iqtisodiyoti”. TDIU. Toshkent, 2005.

32. Е.Г. Непомнящий «Экономическая оценка инвестиций» Учебное пособие. Таганрог 2005.

VI. Turli to’plam, jurnal va gazeta maqolalari

33. Usmanov A.A. “Iqtisodiy o’sishni ta’minlashda ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning ta’sirini baholash”, ““Obod turmush yili” davlat dasurining amalga oshirilishi va mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini mustahkamlashda talabalar ilmiy tadqiqotlarining o’rni” mavzusidagi respublika talabalar ilmiy-amaliy anjumani tezislar to’plami, TDIU,6.04.2013 y., 168 bet

34. Usmanov A.A. “Ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning mohiyati va dastur doirasidagi korxonalariga berilayotgan imkoniyatlar”, ““Obod turmush yili” davlat dasurining amalga oshirilishi va mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini mustahkamlashda talabalar ilmiy tadqiqotlarining o’rni” mavzusidagi respublika talabalar ilmiy-amaliy anjumani tezislar to’plami, TDIU,6.04.2013 y., 170 bet

35. Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiyasi birjasi direksiyasi “Uslubiy tavsiyalar” jurnali /Toshkent/2012 yil

36. Кузнецов В.П., Вазьянский А.М. Локализация производства как инструмент повышения экономической эффективности организации/ Вестник Череповецкого Государственного Университета Научный Журнал/ Основан в декабре 2002 г. /№ 3 (41). Т. 2 • 2012№3 стр.-60

VII. Statistik to’plamlar va jurnallar

37. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari qamda 2011-

2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. – T.: “O'zbekiston”, 2011.

38. O'zbekiston Iqtisodiy axborotnomasi/ Tahliliy jurnal. 2011 yil 1 son.

39. O'zbekiston Iqtisodiy axborotnomasi/ Tahliliy jurnal. 2010 yil 4 son.

40. Приоритеты 2013: высокие темпы роста, стабильность и рост конкурентоспособности/ Экономические обозрение/ 04.03.2013г. / Опубликовано в №1 2013

VIII. Internet sahiflar

39. www.gov.uz

40. www.mfer.uz

41. www.lex.uz

42. www.stat.uz


43. www.nalog.uz

44. www.press-servise.uz

45. www.mineconomy.uz


46. www.cooper.uz

Hududiy tasarrufdagi korxonalar tomonidan XSYaKB doirasida 2012 yilda amalga oshirilgan shartnomalar hajmi bo'yicha yillik prognozni bajarilishi.



Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi "Mahalliy lashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring bo'limi" ma'lumotlari.


2012 yilda hududiy korxonalar tomonidan Mahalliy lashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar TIF TN kodi bo'yicha o'xshash tovarlari importining hududlar umumiy import hajmidagi nisbati (foizda).



Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi "Mahalliy lashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring bo'limi" ma'lumotlari.

2012 yilda hududiy korxonalar tomonidan MahalliyLashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar TIF TN kodi

bo'yicha o'xshash tovarlari importi to'g'risida ma'lumot



Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi "MahalliyLashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring bo'limi" ma'lumotlari.

**ПОСТАНОВЛЕНИЕ
КАБИНЕТА МИНИСТРОВ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

21.07.2010 г.

N 154

**О ДОПОЛНИТЕЛЬНЫХ МЕРАХ
ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ МЕХАНИЗМА
ФОРМИРОВАНИЯ И РЕАЛИЗАЦИИ ПРОГРАММЫ
ЛОКАЛИЗАЦИИ ПРОИЗВОДСТВА ГОТОВОЙ
ПРОДУКЦИИ, КОМПЛЕКТУЮЩИХ ИЗДЕЛИЙ И
МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ПРОМЫШЛЕННОЙ
КООПЕРАЦИИ**

Приложение N 1. Положение о порядке формирования Программы локализации производства готовой продукции, комплектующих изделий и материалов на основе промышленной кооперации

Приложение N 2. Положение о порядке выдачи заключений об отнесении ввозимого технологического оборудования и запасных частей к нему, а также компонентов, сырья и материалов к категории используемых в технологическом процессе при производстве локализуемой продукции

Во исполнение постановления Президента Республики Узбекистан от 1 декабря 2009 года N ПП-1236 и в целях дальнейшего совершенствования механизма формирования и реализации Программы локализации производства готовой продукции, комплектующих изделий и материалов на основе промышленной кооперации с четким распределением функций и разграничением полномочий уполномоченных органов Кабинет Министров **ПОСТАНОВЛЯЕТ:**

1. Утвердить в новой редакции:

Положение о порядке формирования Программы локализации производства готовой продукции, комплектующих изделий и материалов на основе промышленной кооперации согласно приложению N 1;

Положение о порядке выдачи заключений об отнесении ввозимого технологического оборудования и запасных частей к нему, а также компонентов, сырья и материалов к категории используемых в технологическом процессе при производстве локализуемой продукции согласно приложению N 2.

2. Министерству внешних экономических связей, инвестиций и торговли, Министерству экономики Республики Узбекистан, Государственному комитету Республики Узбекистан по демополизации и развитию конкуренции, Дирекции Международной промышленной ярмарки и Кооперационной биржи, другим ведомствам и хозяйствующим субъектам при формировании и реализации ежегодных Программ локализации производства готовой продукции, комплектующих изделий и материалов на

Узбекистан от 1 декабря 2009 года N ПП-1236, и настоящим Постановлением.

3. Министерству финансов, Государственному налоговому комитету, Государственному таможенному комитету Республики Узбекистан совместно с заинтересованными министерствами и ведомствами исходя из утвержденных настоящим постановлением положений в двухнедельный срок внести соответствующие коррективы в порядок применения налоговых и таможенных льгот, предоставляемых в соответствии с пунктом 6 постановления Президента Республики Узбекистан от 23 марта 2010 года N ПП-1306 предприятиям, включенным в Программу локализации производства готовой продукции, комплектующих изделий и материалов на основе промышленной кооперации на 2010 год.

4. Признать утратившим силу постановление Кабинета Министров от 2 апреля 2009 года N 94 "О дополнительных мерах по упрощению механизма внесения корректировок в Программу локализации".

5. Министерству внешних экономических связей, инвестиций и торговли, Министерству экономики Республики Узбекистан совместно с другими министерствами и ведомствами привести ведомственные нормативно-правовые акты в соответствие с настоящим Постановлением.

6. Контроль за исполнением настоящего Постановления возложить на первого заместителя Премьер-министра Республики Узбекистан Р.С. Азимова.

Президент
Республики Узбекистан

И. Каримов

"Собрание законодательства Республики Узбекистан",
2010 г., N 28-29, ст. 235

"Собрание постановлений Правительства Республики Узбекистан",
2010 г., N 7, ст. 38